



2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 3 (1602), 2026-yil 7-yanvar, chorshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz_uz_news



yuz.uz_news



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
Q A R O R I

RESPUBLIKA MAHALLALARIDA XAVFSIZ MUHITNI YARATISH YO‘NALISHIDA YAXLIT MANZILLI ISHLASH TIZIMINI JORIY ETISHGA QARATILGAN QO‘SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR TO‘G‘RISIDA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-yanvardagi “2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–1-son qarori ijrosi natijasida mahallalarda jinoyatchilikni qariyb 1,5 baravarga kamaytirishga erishilganini inobatga olgan holda, shuningdek, mazkur yo‘nalishda yaxlit ishlash tizimini joriy etish hamda mas‘ul rahbarlarning vazifalarini belgilash maqsadida qaror qilaman:

I. Maqsadlar va ustuvor vazifalar

1. Quyidagilar ushbu qarorning asosiy maqsadlari etib belgilansin:

a) **ijtimoiy profilaktika samaradorligini oshirishni** ustuvor vazifa etib belgilagan holda mahallalarda xavfsiz muhitni ishonchli ta‘minlash bo‘yicha manzilli profilaktik chora-tadbirlar tizimini samarali joriy etish orqali jinoyatchilikni keskin kamaytirish;

b) **oilaturmush munosabatlari doirasida hamda ayollar va yoshlar tomonidan** sodir etilayotgan jinoyatlarning asl omillarini ilmiy yondashuvlar asosida tahlil qilish orqali ularning barvaqt oldini olish bo‘yicha yangi ishlash mexanizmlarini belgilash;

v) har qanday noqonuniy holatlar yuzasidan murojaatlarga tezkorlik bilan munosabat bildirish tizimini

yaratish, bu boradagi faoliyatni **bevosita joylarda** samarali yo‘lga qo‘yish orqali **aholi roziligiga erishish**.

2. Quyidagilar barcha mas‘ul idoralar va muassasalar uchun mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish bo‘yicha tashkiliy-profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirishning **ustuvor vazifalari** etib belgilansin:

a) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-yanvardagi “2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi **PQ–1-son qarori** bilan belgilangan mexanizmlariga muvofiq **ishlarni davom ettirish**;

b) har bir mahallada kriminogen vaziyatga salbiy ta‘sir etuvchi omillar bilan ishlashning mahallalar kesimida har choraklik manzilli chora-tadbirlarini belgilash hamda ularning **mahalla — tuman — viloyat** darajasida ijrosi uchun **bevosita mas‘ul rahbarlarni biriktirish** va zimmlariga aniq **javobgarlikni yuklash**;

v) mahalla hududida aholining **ijtimoiy-maishiy muammolarini hal etish** orqali oldini olish mumkin bo‘lgan har bir jinoyat bo‘yicha mahalliy **hokimliklarning mas‘uliyatini oshirish**, ijtimoiy profilaktika subyektlari tomonidan amalga oshirilgan tadbirlar samaradorligi yuzasidan **qat‘iy so‘rov tizimini yo‘lga qo‘yish**;

► Davomi 2-betda

38 MILLION AHOLING ORZU-UMIDLARI RO‘YOBI

Prezidentimizning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim tarixiy voqea bo‘ldi. An‘anaga aylangan ushbu tadbirda 2025-yildagi asosiy ko‘rsatkichlar, 2026-yilga mo‘ljallangan aniq maqsad va vazifalar bayon etildi.

Ushbu dasturilamal hujjat nafaqat yurtimiz keng jamoatchiligi, balki xorijiy davlatlar akademik-ekspert doiralari, diplomatik korpus vakillari orasida ham aks sado bermoqda.

Murojaatnomada 2025-yil yakunlari sarhisob qilinib, davlatni yanada barqaror rivojlantirish, xalq farovonligini yuksaltirish, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish borasidagi o‘ta dolzarb vazifalar aniq-ravshan belgilab berildi. Mamlakatimiz rahbari o‘z chiqishida ko‘plab xalqchil taklif va tashabbuslarni ilgari surdi. Ularning ro‘yobi jamiyatda faollikni oshiradi, davlat va xalq o‘rtasida ochiq muloqotni mustahkamlaydi. Asosiysi, barchani umumiy maqsad — taraqqiy etgan va adolatli yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida birlashtiradi.

Ayniqsa, 2026-yilning “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” deb e‘lon qilinishi Murojaatnomaning butun mohiyatini o‘zida mujassam etgan strategik qaror bo‘ldi. Zero, mahalla o‘zbek jamiyatining asrlar davomida shakllangan, aholini birlashtiruvchi va tarbiyalovchi muhim ijtimoiy institutdir.

► Davomi 2-betda



O‘ZBEKISTON FUTBOLI:

XALQARO ISHONCH VA ICHKI TAYYORGARLIK

YOXUD BOLALAR MAYDONCHASIDAN JAHON CEMPIONATIGACHA

Yashil maydon. Ulkan stadion. Madhiya, o‘yin shiddati, gol zavqi, g‘alaba shukhi, muxlislar quvonchi, kubok... Darvozalar o‘rniga goh g‘isht, goh tosh qo‘yladigan chang ko‘chadagi qo‘lbola o‘yingohdan to‘p tepib qaytarkan, shularni bola orzulari bilan xayolida gavdalantirmagan, olam-olam zavq tuymagan odam kam topilsa kerak. Taktika bilan bironing ishi yo‘q, chopganimiz-chopgan, yiqilgan-turgan, yig‘lagan, quvongan — siz ham to‘rtburchak maydonni hayotning kichik bir modeli, uning kelgusi sinovlari, bahslari, o‘yinlariga tayyorlov ekani haqida u vaqtlar o‘ylab ham ko‘rmagansiz-ku, to‘g‘rimi?

Yaqinda qishloqqa bordim. O‘zimcha bolaligimni tasavvurimda yaxshiroq jonlantirmoqchi bo‘ldimmi, har qalay xayollarimga ergashib, bolalar maydonchasiga borib qolibman. Yo‘q, men ko‘rishni istagan manzaradan asar ham yo‘q edi bu yerda. Hech kimning ust-boshi chang bo‘lmagan, tekis, sun‘iy chim yotqizilgan yam-yashil maydonda bolakaylar shoshilmaygina, tartib bilan

bir-biriga to‘p uzatardi. Bu yerda men tushunishga qiynalayotgan bir narsa bor edi. Aslida, o‘zim hali yoshman, bolaligim ham yaqin o‘n-o‘n besh yillar nari-berisida kechgan. Biroq bolakaylar nigohida nimadir farqli ekanini sezib turgandek edim, bu ishonchmi, umidmi, qat‘iyatmi yoki ularning barchasini o‘zida mujassam etgan dadillikmi, aniq aytishim qiyin...

► Davomi 6-betda

INNOVATSION KENGLIK

DAVLAT VA IQTISODIYOT RIVOJIDA UNING O‘RNI BO‘LAKCHA

Dunyo shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Hayotimizni telefon, kompyuter, avtomobil yoki maishiy texnikasiz tasavvur qila olmaymiz. Oddiy va odatiy ko‘ringan ana shu qurilmalar qachonlardir yuqori texnologik yechimlarga asoslangan innovatsion g‘oya bo‘lgan. Lekin shuni aniqki, bugun intellektual salohiyat mahsuli bo‘lgan g‘oya va innovatsiyalarga ehtiyoj tobora ortib bormoqda.

Boshqacha aytganda, innovatsiya iqtisodiy va ijtimoiy rivojini harakatga keltiruvchi kuchga aylannmoqda. Binobarin, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida yosh tadqiqotchilarga alohida e‘tibor qaratilib, ilmiy izlanishlarini qo‘llab-quvvatlash ustuvor vazifa sifatida belgilangani bejiz emas.

2025-yil uchun davlat byudjeti hisobidan stajyor-tadqiqotchilik, tayanch doktorantura va doktoranturaga jami 5250 ta kvota ajratilgan ilmiy kadrlar tayyorlash siyosati ko‘lami sezilarli darajada kengayganini anglatadi.

► Davomi 5-betda

XALQNING CHINAKAM OVOZIGA AYLANISH MAS‘ULIYATI

DOIMIY IZLANISH VA FAOLLIKKA UNDAYDI

Xalqchil va demokratik tamoyillarga asoslangan yangi O‘zbekistonni, erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish xalqimizning oliy maqsadidir. So‘nggi yillarda bu yo‘nalishdagi ezgu niyatlarimizga erishish yo‘lida muhim islohotlar kechmoqda. Milliy va xalqaro tajribadan kelib chiqib, jamiyatimizni tubdan isloh etish, inson huquqlari himoyasini kuchaytirish, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida chora-tadbirlar amalga oshirilyapti.

Prezidentimiz Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan Murojaatnomasida yurt ravaqini yuksaltirishga xizmat qilayotgan ushbu sa‘y-harakatlarning natijasi xususida to‘xtalar ekan, “Biz islohotlarni amaliy natijaga aylantirishni o‘rgandik. Buning tasdig‘ini tobora yangicha qiyofa kasb etib borayotgan shahar va qishloqlarimizda, zamonaviy korxonalar, savdo-servis maskanlari, maktab, bog‘cha va shifoxonalar, obod ko‘cha va mahallalar, transport-logistika tizimi, raqamli xizmatlar misolida yaqqol ko‘rish mumkin”, dedi.

Darhaqiqat, so‘nggi yillarda jamiyat taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida belgilangan

strategik vazifalar o‘z vaqtida ro‘yobga chiqarilishi natijasida turli sohalarda tub o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Tariximizda birinchi marta yalpi ichki mahsulotimiz 145 milliard dollardan oshdi. 2025-yil iqtisodiyotimizga jalb qilingan xorijiy investitsiyalar hajmi 43,1 milliard dollarga yetdi. Jami investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 31,9 foizni tashkil etdi. Bu esa iqtisodiyotimiz kelgusi yillarda ham yuqori sur‘atlar bilan barqaror o‘sib borishi uchun zamin bo‘ladi.

► Davomi 3-betda

MAKTABGACHA TA‘LIM – ISLOHOTLAR SAMARASI SEZILAYOTGAN SOHA



Bog‘cha tarbiyasi professionallikka asoslanadi. Bugun bolalarning oilada esini tanib, ko‘p narsadan bexabar maktabga borishi avvalgiday odatiy va tabiiy holat emas. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari (MTT)ni ko‘paytirishga alohida e‘tibor qaratilayotgani sababi shunda. Bundan 8 yil avval bog‘chalar soni 5200 ta edi. Bugun bu ko‘rsatkich 38 mingtaga yetgan. Shunday bo‘lsa-da, navbatda turganlar safi ancha keng.

Shuning uchun ham “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida 2025-yil yakuniga qadar maktabgacha ta‘limga qamrovni 78 foizga, yetkazish vazifasi belgilangandi. Shunga ko‘ra qilingan sa‘y-harakatlar tufayli maktabgacha ta‘limga qamrov ko‘lami 78,4

foizga yetdi. 6 yoshli bolalar qamrovi 98 foizga yetkazilib, bepul tayyorlov guruhlarida maktabga sifati tayyorlash ishlari bajarildi.

► Davomi 5-betda



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining
Q A R O R IRESPUBLIKA MAHALLALARIDA XAVFSIZ MUHITNI YARATISH YOʻNALISHIDA YAXLIT MANZILLI
ISHLASH TIZIMINI JORIY ETISHGA QARATILGAN QOʻSHIMCHA CHORA-TADBIRLAR TOʻGʻRISIDA

Boshlanishi 1-betda

g) oila-turmush munosabatlari doirasida hamda ayollar va yoshlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarni “ilmiy xulosa — tavsiya — natija” tamoyili asosida joylarga chiqqan holda maqsadli ilmiy-amaliy oʻrganish orqali samarali tashkiliy-huquqiy choralarni belgilash;

d) mahallalardagi jamoat joylarda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish yoʻnalishiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya va sunʼiy intellekt texnologiyalarini, ijtimoiy profilaktikaga masʼul idoralar va muassasalar tomonidan koʻrilayotgan choralarning samaradorligi ustidan elektron nazorat tizimini keng joriy etish.

II. Tashkiliy-profilaktik chora-tadbirlar

3. Belgilansinki, mahallalarda jinoyatchilikning barvaqt oldini olish boʻyicha samarali tizimni yoʻlga qoʻyishga qaratilgan manzilli ishlarni tashkil etish maqsadida 2026-yilda hududlar masʼul rahbarlar va muassasalarga quyidagi tartibda nomma-nom birkiriladi:

a) kriminogen vaziyati ogʻir mahallalar — tuman (shahar) hokimlari, prokurorlari hamda ichki ishlar organlari boshliqlari va ularning oʻrinbosarlariga;

b) besh yildan buyon “qizil” toifada boʻlayotgan mahallalar — Milliy gvardiyaning hududiy boshqarmalari boshliqlari, viloyat darajasidagi ichki ishlar organlari rahbarlarining va hokimlarning oʻrinbosarlariga;

v) uch yildan buyon “qizil” toifada qolayotgan mahallalar — huquq-tartibot idoralarining taʼlim va ilmiy tashkilotlariga;

g) kriminogen vaziyati eng ogʻir tuman va shaharlar — viloyatlar darajasidagi prokurorlarning va ichki ishlar organlari rahbarlarining birinchi oʻrinbosarlariga;

d) ayollar jinoyatchiligi, spirtli ichimlik va giyohvandlikka ruju qoʻygan shaxslar jinoyatchiligi hamda nizoli oilalar salmogʻi eng yuqori boʻlgan mahallalar — tegishincha viloyatlar darajasidagi oila va xotin-qizlar, sogʻliqni saqlash hamda adliya boshqarmalari boshliqlariga.

4. Shunday tartib oʻrnatilgani, unga muvofiq:

a) birkirilgan masʼul rahbarlar va muassasalar zimmasiga oʻz hududlarida huquqbuzarliklarning barvaqt profilaktikasini tashkil etish namunasini yaratish, hududiy “yoʻl xaritalari” bilan belgilangan chora-tadbirlarning

toʻlaqonli amalga oshirilishini taʼminlash hamda ijtimoiy profilaktika tizimini samarali yoʻlga qoʻyish boʻyicha qatʼiy shaxsiy javobgarlik yuklanadi;

b) Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri, tuman (shahar) hokimlari har oyda bevosita oʻzlari kamida ikkita kriminogen vaziyati ogʻir va murakkab mahallalarga borgan holda yoshlar, ayollar va ishsizlarga nisbatan belgilangan ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshirish holatini tanqidiy oʻrganadi hamda ularning ijtimoiy-maishiy muammolarini bartaraf etish boʻyicha manzilli choralar koʻradi;

v) har oy yakunida Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari tomonidan mahallalarda sodir etilgan ijtimoiy-maishiy tussdagi jinoyatlarning sabablari va ularni keltirib chiqargan omillarni tanqidiy muhokama qiladi va harakatsizlikka yoʻl qoʻygan ijtimoiy profilaktikaga masʼul tashkilotlar rahbarlariga nisbatan choralar koʻradi;

g) ijtimoiy moslashtirish dasturi yakunlangandan soʻng ijtimoiy profilaktika obyektlari tomonidan jinoyatlar sodir etilishining oldini olish maqsadida ushbu shaxslarning turmush tarzi bir yil davomida monitoring qilib boriladi;

d) respublika mahallalarida ilovaga muvofiq tartibda mahalliy hokimliklar rahbarligida “Ijtimoiy profilaktika haftaligi”ni oʻtkazish amaliyoti yoʻlga qoʻyiladi;

j) Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri, tuman (shahar) hokimlari tomonidan hududiy prokurorlar va ichki ishlar organlari rahbarlarining har chorakda kiritiladigan qoʻshma takliflariga asosan mahallada jinoyatchilikni jilovlash yoʻnalishida masʼul davlat idoralarining kamida 15 nafar oʻmak koʻrsatgan rahbar va xodimlari mahalliy byudjet daromadlarining prognozdan oshirib bajarilgan qismi hisobidan mehnatga haq toʻlash fondi (pul taʼminoti)ning bir baravari miqdorda pul mukofoti bilan ragʻbatlantirib boriladi.

III. Tashkiliy-nazorat chora-tadbirlar

5. Mahallalarda huquqbuzarliklarning barvaqt profilaktikasi borasidagi ishlarni kompleks tashkil etish maqsadida Bosh prokuratura huzurida tuzilgan Respublika idoralararo muvofiqlashtirish ishchi guruhi

(keyingi oʻrinlarda — Muvofiqlashtirish ishchi guruhi) oʻz faoliyatini belgilangan tartibda davom ettirsin.

6. Muvofiqlashtirish ishchi guruhi (B.Valiyev, A.Raxmatullayev):

a) 2026-2027-yillarda har chorakda respublika mahallalarida xavfsiz muhit yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishning samarali tashkiliy-texnik tizimini shakllantirishga qaratilgan har bir hudud kesimida asosiy maqsadli koʻrsatkichlarni tasdiqlab borsin hamda ularga erishish holati ustidan nazoratni taʼminlasin;

b) Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan har bir hudud va kriminogen vaziyati ogʻir mahallalar kesimida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-yanvardagi PQ–1-son qarori bilan tasdiqlangan tutilgan chora-tadbirlarning izchil, sifatli va oʻz vaqtida amalga oshirilishini doimiy ravishda qatʼiy nazorat (shu jumladan, elektron nazorat platformasi orqali) qilib borsin;

g) har oyda kamida ikkita viloyat kesimida mahallalarda amalga oshirilayotgan ishlarning holati va natijadorligi boʻyicha barcha masʼul idora va muassasalar bilan tanqidiy muhokamalar oʻtkazilishini hamda ushbu masalaga masʼuliyatsizlik bilan yondashgan rahbarlarga nisbatan lavozimidan ozod etishgacha boʻlgan taʼsir choralari koʻrib borilishini yoʻlga qoʻysin;

d) mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish ishlari munosib hissa qoʻshgan masʼul rahbarlar va xodimlarni har yili Mahalla tizimi xodimlari kuni munosabati bilan davlat mukofotlariga tavsiya qilib borsin.

7. Belgilansinki:

a) mahallalarda xavfsiz muhit yaratish yoʻnalishida amalga oshirilgan ishlar va ularning natijadorligi har oy yakunida — viloyat prokurorlari va ichki ishlar organlari boshliqlari huzurida, har chorak yakunida ichki ishlar vaziri

va Bosh prokuror huzurida tegishli viloyat va respublika rahbarlari ishtirokida tanqidiy muhokama qilinadi hamda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga tahliiliy axborot hamda masʼullarni ragʻbatlantirish yoki intizomiy jazolash boʻyicha takliflar kiritib boriladi;

b) mazkur qarorga muvofiq hududlarga birkitirilgan masʼul rahbarlar va muassasalar tomonidan amalga oshirilgan ishlar holati ustidan nazorat qilish, shu jumladan, joylarga bevosita chiqqan holda ularning natijadorligini baholab borish Muvofiqlashtirish ishchi guruhi va uning hududiy shtablari tomonidan taʼminlanadi.

IV. Qonun ustuvorligini taʼminlash choralari

8. Quyidagilarga:

a) Bosh prokurorning va ichki ishlar vazirining birinchi oʻrinbosarlariga — jinoyatlarni hisobdan yashirish, respublika miqyosida kundalik hisobotlarga soxta maʼlumotlarni kiritish holatlariga tubdan barham berishga qaratilgan qatʼiy nazorat tizimini yoʻlga qoʻyish boʻyicha;

b) Qoraqalpogʻiston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri prokurorlari va ichki ishlar organlari rahbarlariga — jinoyat ishini qoʻzgʻatishni asossiz rad etish, jinoyatlarni hisobdan yashirish va qasddan notoʻgʻri malakalash holatlarining oldini olishga qaratilgan tizimli nazoratni taʼminlash boʻyicha;

v) tuman (shahar) prokurorlari va ichki ishlar organlari rahbarlariga — aholining huquqbuzarlik haqidagi har qanday murojaatlarini soʻzsiz roʻyxatga olish, koʻrib chiqish natijasida qabul qilingan qarorlarning qonuniyligini oʻrganish hamda barcha jinoiy holatlar yuzasidan belgilangan tadbirlar oʻz vaqtida, qonuniy va toʻlaqonli amalga oshirilishini tashkil etish boʻyicha shaxsiy javobgarlik yuklatilish hamda bu borada qatʼiy choralar koʻrilishi toʻgʻrisida ogohlantirilsin.

9. Ichki ishlar vazirligi (A.Tashpulatov):

a) 2026-yil yakuniga qadar fuqarolarning huquqbuzarliklar toʻgʻrisidagi ogʻzaki murojaatlarini soha va hududidan qatʼi nazar, ichki ishlar organlari

xodimlarining xizmat planshetlari orqali real vaqt rejimida yagona tartibda qabul qilish hamda tegishligi boʻyicha tezkorlik bilan munosabat bildirish amaliyotini yoʻlga qoʻysin;

b) 2026-yil 1-noyabrga qadar fuqarolar tomonidan mahalla profilaktika inspektorlari bilan onlayn muloqot qilish, foto, audio, video va tashvish xabarlarini yuborish, shuningdek, ularning faoliyatiga baho berish imkoniyatini beruvchi “Mening inspektorim” mobil ilovasini ishlab chiqish va ommalashtirish choralari koʻrsin;

v) manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda 2026-yil 1-mayga qadar oila-turmush munosabatlari doirasida sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olish maqsadida nizoli oilalar haqidagi maʼlumotlarni toʻplash, tahlil qilish va monitoring qilish imkonini beradigan “E-ijtimoiy profilaktika” axborot tizimining “E-nizoli oila” modulini joriy etish va modulni sudlar oʻrtasida toʻgʻridan-toʻgʻri integratsiya qilish choralari koʻrsin;

g) 2026-yil 1-iyulga qadar Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-yanvardagi PQ–1-son qarori bilan belgilangan tartibda tahlillardan kelib chiqqan holda boshqa hududlarning kriminogen vaziyat ogʻir va murakkab mahallalarida ham mahalla huquq-tartibot maskanlari faoliyatini yoʻlga qoʻyish hamda bunda jamoat xavfsizligini taʼminlash va jinoyatchilikning oldini olish boʻyicha tekzor harakatlanish tizimini joriy etish choralari koʻrsin.

V. Qaror ijrosini tashkil etish, taʼminlash va nazorat

10. Ichki ishlar vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda uch oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan oʻzgartirish va qoʻshimchalar toʻgʻrisida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kirtsin.

11. Qaror ijrosini nazorat qilish Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N.Aripov va Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi departament boshligʻi D.B.Kadirov zimmasiga yuklansin.

Oʻzbekiston Respublikasi
PrezidentiToshkent shahri,
2026-yil 5-yanvar

SH. MIRZIYOYEV

Nargiza SALOMOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi
deputati

Boshlanishi 1-betda

Keyingi yillarda ushbu institutni isloh qilish va uni xalq hayotiga yaqin, samarali tizimga aylantirish boʻyicha keng koʻlamli ishlar qilindi. Mahalla raislarining vakolat muddati 3 yildan 5 yilga uzaytirilib, “yettilik” vertikal tizimi yaratildi. Bu yerdagi har bir imkoniyatni loyihaga aylantirib, ish oʻrni yaratish uchun mahallalarga bankir va soliqchilar birkitirildi. Infratuzilma uchun ham alohida mablagʻ ajratilmoqda.

Albatta, mahalla institutini rivojlantirish masalasiga bu darajada katta eʼtibor qaratilayotgani bejiz emas. Chunki mahalla rivojlanishi bevosita jamiyat yuksalishiga xizmat qiladi. Faol mahalla — faol fuqaro degani, faol fuqaro esa demokratik jamiyat poydevoridir. Bu jamoatchilik nazorati kuchayishiga, davlat va xalq oʻrtasida ishonch ortishiga xizmat qiladi, islohotlar barqarorligini taʼminlaydi.

Yurt obodligi ham, eng avvalo, mahalladan boshlanadi. Shu maʼnoda, mahalla infratuzilmasini tubdan yaxshilash orqali mamlakatimizni har tomonlama rivojlantirish, uning qiyofasini yanada goʻzal va obod qilish davom ettiriladi. Bu orqali mahallaning vakolat va imkoniyatlari yanada kengayib, aholining turmush darajasi oshadi, ijtimoiy muammolar qisqaradi, jamiyatda ijtimoiy hamjihatlik kuchayadi.

Yurtdoshlarimiz ilgari oddiy, mahalla darajasida hal etiladigan masalalar boʻyicha ham tashkilotma-tashkilot, idorama-idora sarson-sargardon boʻlardi. Bugun mahallalarda vaziyat tubdan oʻzgargan. Hozir koʻplab masalalar ortiqcha qogʻozbozliksiz, yugur-yugurlarsiz mahallaning oʻzida hal boʻlmoqda.

Inson qadri ulugʻlanayotgan mahallalarda yuz berayotgan bunday oʻzgarishlar odamlarning hayotga intilishini oshirmoqda. Xalqimiz turmush darajasi butunlay oʻzgarib, islohotlar samarasini har bir inson oʻz kundalik hayotida his qilyapti, sezyapti. Eng muhimi, odamlarga orzu-havaslar, faxr-iftixor, shodlik qaytmoqda.

2026-yildan mahallani rivojlantirish boʻyicha kompleks yondashuv joriy etilishi mutlaqo toʻgʻri va oqilona qaror boʻldi deb oʻylayman. Bu, oʻz navbatida, yoshlarning boʻsh vaqtini mazmunli tashkil etish, sport, madaniyat, kitobxonlikni rivojlantirish, yoʻl, ichimlik suv, elektr, internet bilan bogʻliq muammolarni bosqichma-bosqich hal qilish, maktab, bogʻcha, tibbiyot punkti holatini yaxshilashga imkon beradi.

Har bir viloyatda 2-3 tadan tuman tanlanib, mahallalardagi barcha muammolari hal qiladigan tizim yaratilishi, ularda bir vaqtning oʻzida tadbirkorlik infratuzilmasi ham rivojlantirilishi va ushbu maqsadlar uchun barcha manbalari hisobidan 8,5 trillion soʻm ajratilishi aholi bandligini taʼminlash, fuqarolarni zamonaviy kasb-hunar va tadbirkorlikka oʻqitish, kambagʻallikni qisqartirishga xizmat qilishi shubhasiz.

Deputatlarga oʻz okrugidagi muammolari hal etish uchun 500 milliard soʻm, har bir deputatga 3,3 milliard soʻmdan berilishi ham ayni muddao boʻldi. Zero, ushbu mablagʻ yoʻl, ichimlik suv, elektr, gaz muammolari, maktab, bogʻcha, shifoxonalarni taʼmirlash, mahalla infratuzilmasini yaxshilash kabi eng dolzarb masalalarni hal qilishga sarflanadi. Odamlar endi oʻz muammosi bilan tuman, viloyat markaziga borib ovora boʻlmaydi. Bu orqali odamlarni uzoq yillardan buyon qiynab kelayotgan muammolarga shu yerning oʻzida yechim topiladi. Ayting, inson qadri shu emasmi, aslida?!

Yana bir muhim gap. Bugun dunyoning yirik shaharlari kabi yurtimizda ham ekologiya masalasi juda dolzarb hisoblanadi. Shu sababli yashil hudud, “yashil bogʻ”



yaratish boʻyicha har bir deputatning tashabbusiga qoʻshimcha 330 million soʻmdan yoʻnaltirilishi gʻoyat muhim. Bu mablagʻ daraxt ekish, bogʻ va istirohat hududlari barpo etish, koʻkalmozorlashtirish uchun ishlatiladi. Yashil hududlar esa inson hayoti sifatini oshirish, tabiatni muhofaza qilish va barqaror rivojlanishni taʼminlashga imkon beradi. Umuman, bularning barchasi 2030-yilgacha sharoiti ogʻir

“

Yurtdoshlarimiz ilgari oddiy, mahalla darajasida hal etiladigan masalalar boʻyicha ham tashkilotma-tashkilot, idorama-idora sarson-sargardon boʻlardi. Bugun mahallalarda vaziyat tubdan oʻzgargan. Hozir koʻplab masalalar ortiqcha qogʻozbozliksiz, yugur-yugurlarsiz mahallaning oʻzida hal boʻlmoqda.

barcha tumanlardagi mahallalarga yangi Oʻzbekiston qiyofasini olib kirishga zamin yaratadi.

2026-yilda ilk bor mahalla infratuzilmasini rivojlantirish uchun 20 trillion soʻm viloyatlarning oʻziga berilishi mahallani faqat ijtimoiy institut emas, balki hududni rivojlantirishning asosiy boʻgʻiniga



“

Ayonki, bugun iqtisodiy taraqqiyotni tadbirkorlar faoliyatizis tasavvur etib boʻlmaydi. Zero, tadbirkorlar qancha koʻp boʻlsa va koʻproq daromad koʻrsa, davlat ham shuncha boy boʻladi. Shu bois, ishning koʻzini biladigan, vatanparvar va fidoyi tadbirkorlar davlatimiz tomonidan alohida qoʻllab-quvvatlanmoqda.

Soha vakillari ularga yaratib berilayotgan qulay sharoit, qator yengillik va erkinliklardan kuch olib, iqtisodiyotimiz lokomotiviga aylanib boryapti. Qulay tadbirkorlik muhiti yaratish borasidagi ishlar samarasi yangidan yangi ishlab chiqarish quvvatlari barpo etilayotgani, ishbilarnonlar safi tobora kengayib borayotganida yaqqol namoyon boʻlmoqda.

Murojaatnomada tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash boʻyicha siyosat davom ettirilishi, 2026-yilda asosiy soliq stavkalari oʻzgarishsiz qoldirilishi, tadbirkorlik infratuzilmasi loyihalariga 10 trillion soʻmdan ziyod mablagʻ ajratilishi aytilidiki, bu minglab tadbirkorlarning ayni koʻnglidagi gap boʻldi. Bu ularni yangi marralar sari ruhlantirgani, faollikka chorlagani ham bor gap. Oʻz navbatida, bu imkoniyatlar biznesni yanada rivojlantirish, ish oʻrinlari tashkil etishga qaratilgani bilan diqqatga sazovordir.

Bugun tadbirkorlik eng katta va ayni paytda milliy iqtisodiyotimizning muhim yoʻnalishlaridan biriga aylandi. Sohadagi izchil islohotlar, kichik biznes vakillarining har tomonlama qoʻllab-quvvatlanishi yaqin vaqt ichida tadbirkorlar soni yanada ortib, iqtisodiy barqarorlik taʼminlanishi, aholi farovonligi oshishiga xizmat qilishi shubhasiz.

Xulosa qilib aytganda, davlatimiz rahbarining parlament va xalqimizga yoʻllagan Murojaatnomasi yurt taraqqiyotining 2026-yildagi dolzarb yoʻnalishlari va istiqbollarni qamrab olgan juda muhim strategik hujjat boʻldi. Shunday ekan, har birimiz islohotlar jarayoniga hissamizni qoʻshishimiz, inson qadri ulugʻlangan yurt rivoji, taraqqiyoti uchun bor kuch va salohiyatimizni safarbar etishimiz, belgilangan vazifalar ijrosini taʼminlashda yanada faol va tashabbuskor boʻlishimiz lozim. Zotan, agar hammamiz bir tanu bir jon boʻlib harakat qilsak, koʻzlagan euzu maqsadlarimizga, albatta, erishamiz.

XALQNING CHINAKAM OVOZIGA AYLANISH MAS’ULIYATI

DOIMIIY IZLANISH VA FAOLLIKKA UNDAYDI

Boshlanishi 1-betda

O‘zbekistonning xalqaro maydondagi obro‘-e‘tibori va nufuzi, xalqaro reytinglardagi o‘rni tobora mustahkamlanib bormoqda. Xususan, yetakchi xalqaro reyting agentliklari mamlakatimizning suveren reytingini “BB”-dan “BB” pog‘onasiga ko‘tardi. Shuningdek, Jahon banki e‘lon qilib boradigan Davlatlarning texnologik yetuklik indeksida O‘zbekiston 71 pog‘ona yuqori ko‘tarilib, dunyoning TOP-10 ta mamlakati qatoridan joy oldi.

Bunday fakt va raqamlar yurtimizdagi islohotlar samalarini nafaqat xalqimiz, balki dunyoning ko‘plab rivojlangan davlatlari ekspertlari ham e‘tirol etayotganining yaqqol isbotidir. Zero, bugun dunyodagi murakkab vaziyatga qaramay, yurtimizda turli sohalarda erishilayotgan yutuqlar nafaqat milliy va mintaqaviy, balki global miqyosda dolzarb masalalar yechimida ham o‘rganish va ibrat olishga arziqli tajribadir.

Bu jarayonda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida davlat boshqaruvi va jamiyat hayotining barcha sohalari tubdan isloh etish, davlat organlarining hisobdorligi va ochiqligini kuchaytirish, vakillik organlari nazoratining samarali va ta’sirchan mexanizmlarini yo‘lga qo‘yishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlarning ham ahamiyati beqiyos. Yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyamiz bu boradagi ishlarda muhim huquqiy asos bo‘lmoqda.

Xususan, u respublika darajasidagi hokimiyatlar bo‘linishi va o‘zaro tiyib turish prinsipining mahalliy darajada ham mavjud bo‘lishi uchun huquqiy zamin yaratdi. Joylarda hokimlar va mahalliy kengashlar vakolati ajratildi. Bu chora-tadbirlar jamiyatimizda



ochiqlik, oshkoralik ta‘minlash, xalq hokimiyatchiligini kuchaytirish, bugungi hayotimiz va ertangi taqdirimizga daxldor har bir masalani xalqimiz bilan bamaslahat hal etishda muhim omil bo‘lmoqda.

Joylardagi xalq vakillari bu borada yaratilgan

sharoitlar va berilgan vakolatlardan qanday foydalanmoqda? Mahalliy kengashlarni chinakam xalq ovozig aylantrish borasidagi vazifalar to‘la ro‘yobga chiqayptmi?

Xalq deputatlari mahalliy kengashlari raislaridan ayrimlarining shu xususdagi fikrlari bilan qiziqdik.



ELEKTRON JAMOAVIIY MUROJAAT YO‘LLASH MUMKIN

Adolatli va ochiq jamiyat qurishda faqat davlat emas, balki fuqarolar ham mas’uliyatni his etishi lozim. Ayniqsa, huquqiy madaniyatni oshirish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish va qaror qabul qilish jarayonlarida aholining faol ishtirokini ta‘minlash barqaror rivojlanishning muhim omilidir.



Ismigul XUSHMURODOVA,
Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati kengashi raisi

Ushbu maqsadda erishishda mahalliy kengashlarning roli katta. Shu bois, demokratik taraqqiyot yo‘lini tanlagan har bir davlat mahalliy kengashlar faoliyatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Dunyoga ochiq, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlangan davlat barpo etishni maqsad qilgan mamlakatimiz uchun ham bu vazifa islohotlarning ustuvor yo‘nalishi etib belgilangan va bu yo‘nalishda keng qamrovli ishlar amalga oshirilaypti.

Jumladan, konstitutsiyaviy islohotlar doirasida viloyat hokimlari va mahalliy kengashlar raislari lavozimlari bir-biridan ajratilgan edi. Endi bu tizim shu yil 1-yanvardan 208 ta tuman va shaharda ham yo‘lga qo‘yildi.

Davlatimiz rahbari Oliy Majlis va xalqimizga yo‘llagan Murojaatnomasida bu xususda to‘xtalib, ayni paytda ushbu jiddiy siyosiy islohot — hokimlar va ijro idoralardan kengashlarga munosabatni mulqo o‘zgartirishni talab qilishni alohida ta’kidladi. Bundan buyon deputat so‘rovlari ijrosi har chorakda tahlil qilinib, sustkashlikka yo‘l qo‘yilgan holatlar bo‘yicha prokuraturaga taqdimnoma kiritilishi aytib o‘tiladi. Albatta, bu xalq vakillari faoliyatiga bildirilgan yuksak ishonchdir.

Xalq vakillarining har biri buni chuqur anglagan holda o‘z ishini yangicha yondashuvlar asosida tashkil etishga kirishdi. Prezidentimizning 2024-yil 2-fevraldagi “Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni bu borada muhim

dasturlamal bo‘lmoqda. Hujjatga ko‘ra, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining faoliyati ustidan xalq deputatlari kengashlarining nazorat funksiyalari kengaytirilib, o‘ndan ortiq qo‘shimcha vakolat berildi. O‘zbekiston mahalliy boshqaruvi tarixida birinchi marotaba mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatida yangi model — “Kuchli kengash, hisobdor va tashabbuskor hokim” tamoyili joriy etildi.

Bugun kengashimiz jamiyat va davlat hayotining muhim masalarini hal etish hamda ana shu yo‘nalishda yaratilgan imkoniyatlar hamda xalqning bevosita ixtiyori asosida qaror qabul qilish talab etiladigan vakolatlardan foydalanayotir. Bu borada viloyatimizdagi 17 ta mahalliy kengash samarali ishlayapti. Xususan, deputatlar o‘zi saylangan okrugdagi mahallalarga birlashtirilgan holda tegishli ijro etuvchi hokimiyat organlarini jalb etgan holda hududni rivojlantirishga qaratilgan dasturlar, chora-tadbirlar, loyihalar to‘liq xatlovdan o‘tkazildi.

Bu jarayonda strategik ahamiyatga ega hujjatlarda belgilangan vazifalarning joylardagi ijro holati ham doimiy o‘rganib borilaypti. 2025-yilda bu borada viloyat hokimi o‘rinbosarlarining hisobotlari eshitildi. Shuningdek, Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar kengashlari tomonidan sessiya yig‘ilishlari o‘tkazildi.

Hududlarni rivojlantirish hamda aholi muammolarini hal etishda mahalliy kengashlar deputatlarining “mahalla yetitiligi” bilan o‘zaro hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Oliy Majlis Senati kengashining hududlarni rivojlantirish hamda aholi muammolarini hal etishda mahalliy kengashlar deputatlari va senatorlarning “mahalla yetitiligi” bilan o‘zaro hamkorligini yanada kuchaytirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risidagi qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida tizimli ishlar qilindi. Jumladan, tuman va shaharlarda bo‘yicha 1400 ga yaqin loyihaga mahalliy kengash deputatlari birlashtirildi.

Xalq vakillari har oyda o‘zlari saylangan okruglariga chiqib, loyihalar ijrosi hamda joylarda mavjud muammolarni o‘rganaypti, aniqlangan kamchilik va muammolarni bartaraf etish yuzasidan mutasaddilarga so‘rovlar yubormoqda. O‘tgan yilda deputatlar “mahalla yetitiligi” bilan hamkorlikda 1300 dan ziyod qabul tashkil etib, aholi bilan mulqot uyushtirdi. Bu

Darhaqiqat, mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarini xalqning chinakam ovozig aylantrish borasida barcha hududlarda keng qamrovli islohotlar shu tarzda izchil davom etmoqda. Bu yangilanishlar, o‘z navbatida, mahalliy kengashlar faoliyat samaradorligi, hokimlarning xalq vakillari oldidagi mas’uliyati oshishiga zamin yaratdi. Pirovardida hokimliklar faoliyati ustidan kengashlar va jamoatchilik nazorati kuchaymoqda.

Bu esa aholining boshqaruv jarayonida o‘z hududidagi qarorlarni qabul qilishda ishtirok etgan holda jamiyat manfaatlarini ifodalash hamda mahalliy muammolarni hal qilish orqali ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka hissa qo‘shishiga keng imkon yarataypti. Jamiyatimizda kechayotgan bunday muhim yangilanishlar har birimizning hayot tarzimizga chuqur singib, yurtimiz taraqqiyotini yanada yuksaltirish, kelajak avlodlarga ozod va obod vatan meros qoldirishdek ezig maqsadlarga erishishda barchamizni bir maqsad yo‘lida birlashtiruvchi kuch bo‘lmoqda.

BAMASLAHAT QILINGAN HAR BIR ISHNING NATIJASI XAYRLI BO‘LADI



Oltiboy RAJABOV,
Xalq deputatlari Xorazm viloyati kengashi raisi

Prezidentimiz parlament va xalqimizga yo‘llagan Murojaatnomasida yurt taraqqiyoti va el farovonligini oshirish borasida muhim tashabbuslarni ilgari surdi. Xususan, 2026-yil “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni kuchaytirish yili” deb e‘lon qilinib, mahallalar obodligini ta‘minlash bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilab berildi.

Aytish joizki, mamlakatimizda kechayotgan ana shunday jo‘shqin islohotlar jarayonida inson huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta‘minlash orqali inson qadriini yuksaltirishga alohida e‘tibor qaratilayotgani jamiyatimizda erishilayotgan yutuqlarning muhim omili bo‘layotir. Ayniqsa, xalqimiz irdasini bilan qabul qilingan yangilangan Konstitutsiyamiz yurtimizda inson qadri tamoyili qaror topishda mustahkam zamin bo‘lmoqda, islohotlarga hayotiy kuch bag‘ishlayapti.

Jumladan, Bosh qonunimizda mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari va ijro etuvchi hokimiyati organlari vakolatlari, mahalliy kengash raisi va hokim lavozimlari bir-biridan ajratilgani hokimiyatlar bo‘linishiga oid konstitutsiyaviy tamoyil ijrosini mahalliy darajada ta‘minlashda muhim qadam bo‘ldi.

Mahalliy kengashlarning nazorat faoliyatini kuchaytirishga qaratilgan huquqiy asoslar yaratildi. Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining faoliyati ustidan xalq deputatlari kengashlarining nazorat funksiyalarini kengaytirish maqsadida ularga qo‘shimcha vakolatlar berildi. Xususan, prokuratura, adliya, ichki ishlar, molliya, soliq, ekologiya va sog‘liqni saqlash organlari rahbarlarining hisobdorligi belgilab qo‘yildi.

O‘tgan yili bu jabhadagi ishlar yanada kengaydi. So‘nggi yillarda mahalliy kengashlarning demokratik qiyofasi tubdan yangilandi. Muhim institutsional va konseptual o‘zgarishlar yuz berdi. Ularning qonunchilik bazasi mustahkamlandi, vakolatlari kengaydi.

Avval deputatlar kun tartibiga faqat hokimning hisoboti kiritilgan bo‘lsa, hozirgi kunda mahalliy darajadagi 60 dan ortiq tashkilotning hisobot va axborotlari deputatlar tomonidan eshtirilmoqda. Ushbu chora-tadbirlar hududlarni yanada samarali boshqarish va barqaror rivojlantirish uchun

sharoit yaratmoqda. Zero, fuqarolar qarorlar qabul qilishda ishtirok etishi demokratiya hamda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda ham muhim rol o‘ynaydi.

Xalq deputatlari viloyat, tuman (shahar)lar kengashlari tomonidan o‘tgan yilda o‘tkazilgan sessiyalarda hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining dolzarb masalalari yuzasidan mas‘ul rahbarlarning mingdan ortiq hisobot va axboroti eshitildi. Shuningdek, muhokama qilish, nazorat-tahlil tadbirlari o‘tkazish, vakolat doirasidagi va boshqa masalalar ko‘rib chiqilib, tegishli qarorlar qabul qilindi.

Xalq deputatlari viloyat, tuman (shahar)lar kengashlari deputatlari tomonidan o‘tkazilgan 2400 uchrashuvda bir yarim mingga yaqin muammo aniqlanib, aksariyati joyida hal etildi. Shuningdek, xalq vakillari saylovchilar bilan o‘tkazgan uchrashuvlar davomida joylardagi muammoli masalalar bo‘yicha deputat so‘rovlari yuborildi va ularning natijalari to‘g‘risida tegishli javob xatlari olindi. Ushbu masalalarning ba‘zilari sessiyalarda muhokama qilindi.

Murojaatlardan aholini ko‘proq yo‘l, suv, elektr va gaz ta‘minotidagi kamchiliklar bezovta qilayotgani ma‘lum bo‘lmoqda. Qolaversa, mahalla infratuzilmasini yaxshilash, tibbiy-ijtimoiy ko‘makka muhtojlarga yordam ko‘rsatishni ham doimiy nazoratga olishga to‘g‘ri keladi. Bundan tashqari, bandlik va tadbirkorlikni rivojlantirishga oid loyihalarni jonlantirishda aholi va tadbirkorlarga doimiy ko‘mak berish lozim. Bu boradagi murojaat va so‘rovlarning ijrosini ta‘minlash maqsadida xalq vakillarining tegishli idora va tashkilotlar, jumladan, mahalla faollari bilan doimiy hamkorligi muhim samara bermoqda.

Bu ishlarni yanada kuchaytirish maqsadida hududlarni rivojlantirishga qaratilgan dasturlar ijrosini samarali nazorat qilish hamda mahallalardagi muammoli masalalarni hal etishda o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish borasida viloyatdagi barcha deputatlar mahallalarga birlashtirilgan. “Mahalla yetitiligi” bilan birgalikda qabullar tashkil etilib, aholining muammoli masalalari eshitildi. Bundan tashqari, fuqarolar qabullari, mahallalar faoliyatini va dasturlarga kiritilgan loyihalarni o‘rganish natijasida aniqlangan muammolarni “Mahalla yetitiligi” bilan birgalikda hal etish choralari ko‘rilmoqda.

Faoliyatimizning yana bir yo‘nalishi qonun loyihalarini muhokamasi jarayonida ishtirok etishdir. Prezidentimiz Oliy Majlis Senatining 2024-yil 19-noyabr kuni bo‘lib o‘tgan birinchi majlisidagi nutqida bu xususda to‘xtalib, Senat qonunlarni muhokama qilishda yangicha mexanizmlarni joriy etishi zarurligi, ayniqsa, qonun ijodkorligi jarayoniga mahalliy kengashlarni keng jalb etish, har bir qonun bo‘yicha ularning fikrini olish amaliyotini yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyatga ega ekanini ta’kidlagan edi.

Bu fikrlar bejiz ilgari surilmadi. Chunki hududlarning o‘ziga xos xususiyat va imkoniyatlari hisobga olinmagan qonunlar quyi bo‘g‘inda samarali ishlamaydi. Shu bois, qonunlarda hududiy va umumdavlat manfaatlari uyg‘un bo‘lishiga erishish uchun ularni ishlab chiqishda xalqimiz bilan bamaslahat ish tutish ayni muddaodir.

jarayonda aniqlangan to‘rt mingdan ortiq muammoning aksariyati mahalla faollari va hokimliklar ishtirokida ijobiy hal etildi. Hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, investitsiya dasturlari loyihalarini dastlab mahalliy kengashlarda muhokama qilish, ularda belgilangan har bir vazifaning o‘z vaqtida va sifati bajarilishi ustidan samarali deputatlik nazorati yo‘lga qo‘yilgan.

Shaffoflikni oshirish maqsadida mansabdor shaxslarning hisoboti kengash sessiyasi muhokamasidan so‘ng “E-kengash” platformasidagi tegishli mahalliy kengashlar sahifalarida e‘lon qilib borilaypti. Bugun mahalliy kengash qarorlarini qabul qilish jarayoni ochiqligini ta‘minlash maqsadida fuqarolarning sessiya ishini bevosita kuzatishga yo‘l ochildi. Endilikda fuqarolar mahalliy kengashlarga elektron jamoaviy murojaat yo‘llashi mumkin.

Mahalliy kengashlar deputatlari tomonidan xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoyalash, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy faolligini oshirish va gender tenglikni ta‘minlash borasida targ‘ibot ishlari tashkil etilayotir. Aholining kambag‘allik darajasini kamaytirish maqsadida fuqarolarni mahalliy boshqaruvi tarixida birinchi marotaba mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatida yangi model — “Kuchli kengash, hisobdor va tashabbuskor hokim” tamoyili joriy etildi.

Bugun kengashimiz jamiyat va davlat hayotining muhim masalarini hal etish hamda ana shu yo‘nalishda yaratilgan imkoniyatlar hamda xalqning bevosita ixtiyori asosida qaror qabul qilish talab etiladigan vakolatlardan foydalanayotir. Bu borada viloyatimizdagi 17 ta mahalliy kengash samarali ishlayapti. Xususan, deputatlar o‘zi saylangan okrugdagi mahallalarga birlashtirilgan holda tegishli ijro etuvchi hokimiyat organlarini jalb etgan holda hududni rivojlantirishga qaratilgan dasturlar, chora-tadbirlar, loyihalar to‘liq xatlovdan o‘tkazildi.

Bu jarayonda strategik ahamiyatga ega hujjatlarda belgilangan vazifalarning joylardagi ijro holati ham doimiy o‘rganib borilaypti. 2025-yilda bu borada viloyat hokimi o‘rinbosarlarining hisobotlari eshitildi. Shuningdek, Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar kengashlari tomonidan sessiya yig‘ilishlari o‘tkazildi.

Hududlarni rivojlantirish hamda aholi muammolarini hal etishda mahalliy kengashlar deputatlarining “mahalla yetitiligi” bilan o‘zaro hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Oliy Majlis Senati kengashining hududlarni rivojlantirish hamda aholi muammolarini hal etishda mahalliy kengashlar deputatlari va senatorlarning “mahalla yetitiligi” bilan o‘zaro hamkorligini yanada kuchaytirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risidagi qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida tizimli ishlar qilindi. Jumladan, tuman va shaharlarda bo‘yicha 1400 ga yaqin loyihaga mahalliy kengash deputatlari birlashtirildi.

Xalq vakillari har oyda o‘zlari saylangan okruglariga chiqib, loyihalar ijrosi hamda joylarda mavjud muammolarni o‘rganaypti, aniqlangan kamchilik va muammolarni bartaraf etish yuzasidan mutasaddilarga so‘rovlar yubormoqda. O‘tgan yilda deputatlar “mahalla yetitiligi” bilan hamkorlikda 1300 dan ziyod qabul tashkil etib, aholi bilan mulqot uyushtirdi. Bu

Darhaqiqat, mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarini xalqning chinakam ovozig aylantrish borasida barcha hududlarda keng qamrovli islohotlar shu tarzda izchil davom etmoqda. Bu yangilanishlar, o‘z navbatida, mahalliy kengashlar faoliyat samaradorligi, hokimlarning xalq vakillari oldidagi mas’uliyati oshishiga zamin yaratdi. Pirovardida hokimliklar faoliyati ustidan kengashlar va jamoatchilik nazorati kuchaymoqda.

Bu esa aholining boshqaruv jarayonida o‘z hududidagi qarorlarni qabul qilishda ishtirok etgan holda jamiyat manfaatlarini ifodalash hamda mahalliy muammolarni hal qilish orqali ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka hissa qo‘shishiga keng imkon yarataypti. Jamiyatimizda kechayotgan bunday muhim yangilanishlar har birimizning hayot tarzimizga chuqur singib, yurtimiz taraqqiyotini yanada yuksaltirish, kelajak avlodlarga ozod va obod vatan meros qoldirishdek ezig maqsadlarga erishishda barchamizni bir maqsad yo‘lida birlashtiruvchi kuch bo‘lmoqda.

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri Bahor XIDIROVA tayyorladi.



PROFESSIONAL SUDYALIK KORPUSI:

TADRIJIYLIK, MANTIQUIYLIK VA ILG'OR TENDENSIYALAR

Nuqtayi nazar

Bugungi zamonaviy dunyoda sud institutiga fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining ishonchli himoyachisi, huquqlari va qonuniy manfaatlarini samarali qo'riqlash vositasi deb qarash tendensiyalari ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Yangi O'zbekistonda ham sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash yo'li bilan odil sudlov faoliyatini to'laqonli amalga oshirish eng muhim vazifa sifatida belgilandi.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



Sherzod ABDUQODIROV,
O'zbekiston Respublikasi
Odil sudlov akademiyasi rektori

E'tiborlisi, Prezidentimiz parlament va xalqimizga navbatdagi Murojaatnomasida 2026-yilda amalga oshiriladigan eng muhim 6 ta ustuvor yo'nalishning oltinchisi sifatida zamonaviy davlat boshqaruvi va adolati sud-huquq tizimi borasida ham fikr bildirdi. Jumladan, "Sud-huquq tizimini xalqqa yaqinlashtirish qaratilgan ishlarimizni izchil davom ettiramiz. Biz odil sudlov jarayonini "raqamli sud" konsepsiyasi asosida tashkil etishni boshladik. Endi tergovni ham raqamlashtirish orqali inson huquqlari himoyasini kuchaytiramiz. Bunda jinoyat haqidagi arizani qabul qilishdan boshlab, ishni sudga o'tkazishgacha bo'lgan bosqichlarga

sun'iy intellekt texnologiyalari joriy etiladi va inson omili qisqartiriladi", dedi.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, mamlakatimizda sud organlarini tashkiliy-institutsional jihatdan tubdan takomillashtirishga qaratilgan 70 dan ortiq normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi.

Xususan, "O'zbekiston — 2030" strategiyasida Konstitutsiya va qonunlar ustuvorligini o'rnatish, inson huquq va erkinliklarining ishonchli himoya qilinishini sud-huquq islohotlarining bosh mezoniga aylantirish, davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatini ustidan samarali sud nazoratini o'rnatish, sud hokimiyati mustaqilligini kuchaytirish va faoliyatida ochiqlikni ta'minlash orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish, umuman, har qanday holatda ham adolati qaror toptirishga qodir bo'lgan odil sudlov tizimini shakllantirishdek ergu maqsadlar belgilandi.

Ayniqsa, sud sohasida kadrlar tayyorlashning amaldagi tizimi tahlilidan kelib chiqib, professional va yetuk sudyalik korpusini shakllantirish uchun yuqori standartlarni joriy etishga alohida e'tibor qaratildi. Bu borada sudyalik lavozimiga nomzodlarni tayyorlash tartibini tubdan takomillashtirish, sudyalari va sudlar apparatlarini xodimlari malakasini oshirish tizimini zamon talablariga moslashtirishga qaratilgan tom ma'nodagi demokratik islohotlar kechmoqda.

Bundan oldi yil oldin davlatimiz rahbarining tegishli qarori bilan sudyalikka eng munosib nomzodlarni tayyorlash, amaldagi sudyalari

va sudlar apparatlari xodimlari malakasini oshirishga ixtisoslashtirilgan, O'zbekiston sud tizimidagi yagona ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasasi — Sudyalari oliy kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi tashkil etilgan edi.

Sudyalari oliy maktabi faoliyati yo'lga qo'yilgach, birinchidan, sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tayyorlash, sudyalari va sudlar apparatlarini xodimlari qayta tayyorlash, malakasini oshirish tizimi yangi yondashuv, usul va mexanizmlar bilan takomillashtirildi.

Ikkinchidan, sudyalik lavozimlariga nomzodlar va oliy maktabning barcha tinglovchilarida chuqur nazariy bilimlar bilan birga kasbiy etika, psixologiya, ishchanlik muloqoti va vaqtni boshqarish ko'nikmalari, muzokaralar olib borish taktikasi, axborot bilan ishlash texnologiyasi, huquq normalariga sharoit berish va qo'llashni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi.

Uchinchidan, bo'lajak sudyalari amaliyot bilan chambarchas bog'liq jarayon — stajirovka o'tashining sifat jihatidan yangi tizimi yaratildi,

shuningdek, ilmiy tadqiqot faoliyati va o'quv jarayoni bilan uzviy bog'liqligini ta'minlashga erishildi.

To'rtinchidan, oliy maktabdagi ta'lim jarayoniga ish yuritish va tanqidiy tahlil qilish, innovatsion pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan foydalangan holda asoslangan qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradigan interfaol o'qitish uslublarini joriy etish kengaytirildi.

Beshinchidan, sudyalik lavozimlariga nomzodlarni qonunchilikdagi dolzarb yangiliklar, mamlakatimiz va xorijdagi huquqni qo'llash amaliyoti hamda norma ijodkorligi faoliyati holati va tendensiyalari bilan tanishtirib borishga alohida ahamiyat qaratildi.

Prezidentimizning 2025-yil 21-avgustdagi "Odil sudlov sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni asosida O'zbekiston Respublikasi Odil sud akademiyasi tashkil etilishi sud tizimini zamonaviy va salohiyatli kadrlar bilan

ta'minlashda yangi davrni boshlab berdi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Ushbu farmon odil sudlov tizimiga salohiyatli sudya kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashga qaratilgan muhim huquqiy hujjat va ulkan ijtimoiy-siyosiy voqeilik bo'ldi. Sudyalari oliy kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi negizida yangidan tashkil etilgan Odil sudlov akademiyasida ta'lim va tarbiya jarayonlari bevosita "ustoz-shogird" an'anasi asosida "bo'lajak sudyalari sudya o'qitadi" tamoyiliga muvofiq tashkil etiladi.

Farmonda Odil sudlov akademiyasida kasbiy qayta tayyorlash kurslari qonunchilikni qo'llash ko'nikmasining amaliyoti bilan uzviy bog'liqligini ta'minlagan holda "nazariya — amaliyot — imitatsiya" tamoyili asosida dual ta'lim shaklida tashkil etilishi lozimligi alohida vazifa sifatida belgilandi. Akademiyada ushbu tamoyil asosida dars mashg'ulotlarini tashkil etish katta ijobiy samara berishi shubhasiz. Chunki bunda bo'lajak sudya mashg'ulotlar davomida har bir sud protsessi ishtirokchilari,

Yangicha yondashuvlar

Arxivlar davlatlarning tarixiy xotirasi, huquqiy merosi va jamiyat taraqqiyotiga oid institutsional ma'lumotlarni saqlovchi tizim sifatida har doim strategik ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Zamonaviy raqamli texnologiyalar rivoji arxiv ishini an'anaviy shakldan texnologik shaklga o'tishini talab qilmoqda. So'nggi yillarda davlat boshqaruvida ochiqlik, tezkorlik va raqamli transformatsiya jarayonlari ketayotgan bir paytda arxiv sohasi ham zamonga monand rivojlanmoqda.

Prezidentimizning 2025-yil 24-noyabrda "Arxiv ishi sohasini raqamlashtirish va sohada boshqaruv samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni arxiv tizimini yangi bosqichga olib chiqish uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Mazkur hujjatda arxiv jarayonlarini to'liq raqamlashtirish, sohada sun'iy intellektdan foydalanish, RFID texnologik tizimini joriy etish va shajara axborot tizimini yaratish orqali arxiv infratuzilmasini tubdan modernizatsiya qilish kabi bir qator vazifalar belgilab berilgan.

Mazkur farmonning dolzarbligi shundaki, u nafaqat texnik yangilanishni, balki arxiv sohasi orqali fuqarolar va davlat o'rtasidagi axborot almashinuvining tamoman yangi madaniyatini shakllantirishni ham maqsad qilgan. Arxiv xizmatlarining tezkor, xavfsiz va korruptsiyadan xoli bo'lishi, hujjatlar xavfsizligi va saqlanishini ta'minlash kabi vazifalar mamlakatda "elektron hukumat" qurish jarayonining uzviy qismiga aylanib ulgurd.

Avvalo, raqamlashtirish siyosati hujjatlarining elektron shaklga o'tkazilishi, arxiv ma'lumotlarining yagona platformada jamlanishi hamda ularni uzoq muddatli saqlash mexanizmining mustahkamlanishiga qaratilgan. Endilikda nafaqat skanerlash, balki hujjatlarining tozaligi, aniqligi va izlash tizimlarida samaradorlik yaratiladi.

Joriy yil 1-iyundan arxiv xizmatlarini raqamlashtirishda qo'llaniladigan amaldagi arxiv axborot tizimlari negizida Yagona milliy arxiv axborot tizimi joriy etiladi. Buning afzalligi shundaki, elektron hujjatlar vaqt o'tishi bilan eskirmaydi, yo'qolmaydi va qayta-qayta ko'rish jarayoni ularning belgil holatiga



RAQAMLI ARXIV

SHAFFOFLIKNI OSHIRIB, INSON OMILINI KAMAYTIRADI



Sayyora MUHAMMEDOVA,
O'zbekiston ilmiy-texnika va
tibbiyot hujjatlarini milliy arxivi
bo'lim mudiri

zarar yetkazmaydi. Arxiv fondlarining katta qismi elektron muhitga o'tgach, ularning bir necha nusxada maxsus serverlarda saqlanishi xavfsizlik darajasini sezilarli oshiradi. 2030-yilgacha arxiv hujjatlarining 60 foizi raqamlashtiriladi. Bu uch bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchii bosqichda 2025-2027-yillarda arxivlardagi alohida qimmatli va noyob hujjatlar, mol-mulk va yerga oid arxiv hujjatlarini to'liq raqamlashtiriladi. Ikkinchisi 2028-2029-yillarda kino, foto, fono va ilmiy-texnik arxiv hujjatlarini raqamlashtiriladi. Shuningdek, 2030-yildan O'zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondining boshqa arxiv hujjatlarini ham elektron shaklga o'tkaziladi.

Shu bilan birga, sun'iy intellekt texnologiyalarining arxivlarda qo'llanilishi jarayonlari sifatini tubdan o'zgartiradi. Sun'iy intellekt matni tanib olish, eskirgan hujjatlar tasvirini tozalash, avtomatik indekslash, hujjatlarini mazmuniga qarab guruhlariga ajratish, bir xil turdagi hujjatlarini o'zaro bog'lash kabi jarayonlarni insondan ancha tez amalga oshiradi. Natijada arxivchi qo'lda bir necha kun sarflaydigan vazifani bir necha daqiqada bajaradi. Bu jarayon inson omilini kamaytiradi hamda xatoliklarning oldini oladi. Pirovardida xizmatlar tezlashadi. Sun'iy intellekt asosida yaratilgan qidiruv tizimi yuz minglab hujjatlar orasidan soniyalar ichida kerakli ma'lumotni topib beradi.

Bu ilmiy izlanishlar, jamoatchilik murojaatlari va davlat idoralari faoliyatida samaradorlikni oshiradi. Shu bilan birga, elektron xizmat ko'rsatish ulushi 100 foizga yetkaziladi hamda xizmat ko'rsatish muddati kamida uch baravar qisqaradi. Jumladan, bu yil 1-martdan boshlab arxiv hujjatlarini yoki ularning ko'chirma nusxalarini O'zbekiston Respublikasidan tashqariga vaqtincha olib chiqish uchun ruxsatnoma berish muddati 15 ish kunidan 5 ish kunigacha, yaroqsiz holatga kelgan yoki yo'qotilgan mehnat daftrachasidagi yozuvlarni tasdiqlash muddati 20 ish kunidan 10 ish kunigacha, oliy va o'rta-maxsus ta'lim muassasasida o'qiganlikni tasdiqlash haqidagi arxiv ma'lumotnomasi berish muddati 5 ish kunidan 2 ish kunigacha, arxiv hujjatlarini, kitoblar va qo'lyozmalarni raqamlashtirish (elektron nusxa olish) kabi xizmatlarni bajarish muddati 3 ish kunidan 1 ish kunigacha qisqartiriladi. Bu esa arxiv xizmatlarini ko'rsatishda yangi imkoniyatlar ochadi.



Arxiv sohasidagi yana bir yangilik — RFID (Radio Frequency Identification, ya'ni radiochastota identifikatsiyasi) tizimi joriy etilishidir. RFID radiosingnallari yordamida ma'lumotlar o'qiladigan yoki yoziladigan obyektlarini avtomatik identifikatsiyalash usuli hisoblanadi. RFID texnologiyasi har bir hujjatga o'rnatilgan maxsus chiplardan iborat bo'lib, ular orqali hujjatlarining harakati real vaqt rejimida kuzatiladi. Unda har bir arxiv hujjatiga unikal identifikatsiya raqami beriladi va ular arxiv axborot tizimi bilan integratsiya qilinadi. Mazkur texnologiya arxivlarda hujjatlar yo'qolishi, joyidan noto'g'ri olinishi yoki qo'yilishi, boshqa bo'limlarga tasodifiy ko'chib qolishi yoki ruxsatsiz foydalanilishi kabi holatlarning oldini oladi. Har bir harakat

elektron tizimda qayd etilgani uchun arxivda hujjatlarini saqlash tartibi yanada mustahkamlanadi, hujjat xavfsizligi texnologik jihatdan yangi bosqichga ko'tariladi. Bu tizim nafaqat xavfsizlikni ta'minlaydi, balki arxiv ishidagi itizomiy madaniyatni ham shakllantiradi. Farmon bilan RFID texnologiyasining joriy yil 1-iyundan boshlab O'zbekiston Milliy arxivi, Ilmiy-texnika va tibbiyot hujjatlarini milliy arxivi, Kinofotofono hujjatlarini milliy arxivlarida saqlanayotgan hujjatlar bilan ishlashda majburiy qo'llanilishi, 2027-yil 1-martga qadar bosqichma-bosqich Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri markaziy davlat arxivlari hamda viloyat davlat arxivlarida saqlanayotgan hujjatlar

tarixiy va antropologik tadqiqotlarni ham rivojlantiradi. "Shajara" tizimi orqali fuqarolar o'z ajdodlari haqidagi ma'lumotlarni oson, tez va ishonchli tarzda olishi davlat xizmatlari sifatini ancha yaxshilaydi. Shuningdek, ushbu tizim jamiyatda tarixiy xotirani tiklash, etnologiya va demografiya kabi fanlar uchun yangi ma'lumotlar bazasini yaratish imkonini beradi. Shu bilan birga, oila shajarasiga oid ma'lumotlarning saqlanishi, maxfiyligi hamda himoya qilinishi ta'minlanadi. Bu inson huquqlarini himoya qilish uchun muhim jihattir. Oila shajarasini shakllantirish xizmati Davlat xizmatlari markazi hamda Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali IX asrdan 1917-yilgacha, 1919-yildan 1945-yilgacha, 1946-yildan hozirgi kunga qadar bo'lgan davrlar bo'yicha ko'rsatiladi.

Farmonning davlat boshqaruvi uchun yaratayotgan imkoniyatlari ham beqiyos. Arxivlarning raqamli tizimga o'tishi davlat idoralari o'rtasida ma'lumot almashinuvi tezlashuvi, qaror qabul qilishda ishonchli ma'lumotlarga tayanish, korruptsiyaviy xavflar pasayishi va davlat xizmatlari standartlariga olib keladi. Raqamli tizimda har bir murojaatning izchil qayd etilishi shaffoqlikni oshirib, korruptsiyaviy holatlarning oldini oladi.

Belgilangan vazifalar ijrosi arxiv tashkilotlari xodimlari uchun qulayliklar yaratadi. Raqamlashtirish, sun'iy intellekt va RFID tizimi joriy etilishi arxivchilarning kasbiy faoliyatini sezilarli yaxshilaydi. Avvallari og'ir jismoniy mehnat va qo'lda bajariladigan jarayonlari arxivchi vaqtining katta qismini olgan bo'lsa, hozir zamonaviy texnologiyalar yordamida arxivchilar ilmiy, tahiliy va metodik ishlarga yanada ko'proq e'tibor qaratishi mumkin. Endilikda malaka oshirish, xorijiy tajribalarni o'rganish va zamonaviy texnologiyalar bo'yicha o'quv kurslarini tashkil etish belgilangan bo'lib, bu sohaga yangi avlod raqamli mutaxassislarini jalb qiladi. Zamonaviy uskunalar, qulay ish joylari va xavfsiz mehnat sharoitlari arxivchilik kasbi nufuzini oshiradi.

Xulosa o'rinda aytish mumkinki, mamlakatimiz arxiv tizimini tubdan modernizatsiyalashga xizmat qiluvchi mazkur strategik hujjatning amaliyotga joriy etilishi davr talabi. Raqamlashtirish jarayonlari arxiv xizmatlarini tezkor, qulay va ishonchli qiladi, sun'iy intellekt jarayonlarining sifatini oshirib, inson omilini kamaytiradi. Davlat boshqaruvida shaffoqlikni kuchaytiradi hamda korruptsiya xavfini kamaytiradi. Natijada yangi O'zbekistonning tarixiy xotirasi yanada ishonchli saqlanadi va kelajak avlodlarga zamonaviy shaklda yetkaziladi.



Yuksalish pallası

MAKTABGACHA TA’LIM –
ISLOHOTLAR SAMARASI SEZILAYOTGAN SOHA

Boshlanishi 1-betda

Raqamlarning yildan yilga oshib borishi talabi maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog’ini kengaytirishga xizmat qiladi. Yangi turdagi MTTlarning tizimga kirib kelishi tufayli davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlari soni 8 barobar oshdi. Tizim samaradorligini oshirish uchun davlatimiz rahbarining 10 ga yaqin farmoni va qarorlari chiqdi. Ta’limga eng ko’p e’tibor berilgan 2025-yilda davlatga tegishli 100 dan ortiq, xususiy sheriklik asosidagi 100 dan ziyod yangi MTT va 1200 ga yaqin oilaviy bog’cha faoliyati yo’lga qo’yildi. Natijada mamlakat bo’ylab

100 mingga yaqin bola o’rni ochildi. Qamrovni oshirish maqsadida yangi, zamonaviy loyihalar asosidagi 38 ta MTT qurib bitkazildi. 129 tasida rekonstruksiya, 15 tasida mukammal ta’mirlash ishlari bajarildi. Chekka va o’lis, tog’li, MTT qurish imkonini bo’lmagan hududlarda 30 ta yangi avtobus negizidagi 60 ta mobil guruh orqali 3000 ga yaqin bola maktabgacha ta’limga jalb etildi.

Ilk bor tajriba-sinov tariqasida 208 ta bog’chada inklyuziv guruhlar ochildi. Ularga qamrab olingan bolalar bilan korreksion rivojlantiruvchi mashg’ulotlar o’tayotgan tarbiyachi, tarbiyachi yordamchisi, psixolog, defektolog, logopedlarning ish haqiga qo’shimcha ustamalar belgilandi.

2025-yilda 50 ta tuman (shahar)da Ilk rivojlanish markazlari ochildi. Maktabgacha ta’lim xizmatlaridan foydalanishning ajoyib muqobili bo’lgan, davlat tomonidan moliyalashtiriladigan va boshqariladigan bu shakl o’zini oqlayotgan tajriba sifatida respublikamizning barcha hududida joriy etilyapti. Bu markazlar maktabgacha ta’limga qamrab olinmagan 3-6 yoshli bolalar uchun “o’yin guruhlari” va alohida ta’lim olish ehtiyoji bo’lgan 2-7 yoshli bolalar uchun “maxsus maktabgacha ta’lim xizmati” modellari asosida ish yuritayapti. Ularga bolalarni qabul qilish davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlariga qabul qilish tartibi asosida amalga oshirilayotir. Bu

borada kambag’al oilalarning farzandlariga ustunlik berilmoqda. Tarbiyalanuvchilarning davlatga tegishli boshqa maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi navbati saqlab qolinishi, ulardan ota-ona to’lovi undirilmaligi ham aholiga juda katta amaliy yordam bo’ldi.

Son emas, sifat birlamchi

Bolani bog’chaga olib borishdan maqsad uni kechga qadar faqat nazoratda ushlab turish emas. Shu bois, MTTlarda ta’lim-tarbiya sifatini oshirishga jiddiy yondashilyapti. Qo’llanmalar, dasturlar yangilanayotgani, xorij tajribasi asosidagi loyihalar ishlab chiqilayotgani fikrimizni tasdiqlaydi. Jumladan, 2025-yil maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun Singapurning “Marshall Cavendish Education” tashkiloti bilan hamkorlikda tarbiyalanuvchilarning intellektual va ijodiy rivojlanishiga yo’naltirilgan “Quvnoq matematika”, “Bilag’on bolajon” nomli o’quv-metodik majmualar tayyorlandi. Tarbiyalanuvchilar ushbu mashg’ulotlari orqali son va sanoqni o’rganyapti, shakllarni farqlayapti, mustaqil tafakkurini rivojlantiryapti. Ularning kundalik hayotdagi matematik masalalarni yecha olayotgani, amaliy topshiriqlarni bajarishga urinayotgani ham haqiqat.

Poytaxtimizda o’tgan maktabgacha ta’lim tizimini transformatsiyalashga doir xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada mahalliy va xorijiy mutaxassislar milliy islohotlarni xalqaro tajriba bilan uyg’unlashtirish, innovatsion yondashuvlar, sun’iy intellekt, inklyuziv ta’lim masalalarini muhokama qilgani tizim taraqqiyoti yo’lidagi yana bir harakat bo’ldi. Zero, mavzu doirasida amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi, tajriba almashildi.

Sifat va samaradorlik haqida gap borar ekan, 2025-yilda barcha DMTT guruhlariga bolalar yosh xususiyatlariga va xalqaro standartlarga mos, milliy qadriyatlarimizga asoslangan 45-50 nomdagi o’quv-metodik, didaktik materiallar, o’yinchoqlar, o’yinlar to’plamlari davlat byudjeti hisobidan yetkazib berilganini ta’kidlash



o’rinli. Bu pedagoglarning vaqtini, mehnatini qadrlash bilan birga ta’lim-tarbiya sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan egzu ish hamdir. Binobarin, qayerda ta’lim sifati yuqori bo’lsa, shu yerda bolalar to’liq quvvatda qamrab olingani yaqqol ko’rinib turibdi. Ta’lim-tarbiya sifati va samaradorligini oshirish maqsadida tashkil etilgan 325 ta tayanch MTT esa elektron doska va planshetlar bilan ta’minlandi.

O’tgan yil “Ilk qadam” davlat o’quv dasturida bolalarning og’zaki va yozma nutqini rivojlantirish, so’z boyligini oshirish, ona tilida muloqot qilish madaniyatini shakllantirish, adabiyot va xalq og’zaki ijodi namunalardan foydalanish kabi yo’nalishtirish boshlandi. Qorag’alpog’iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi 3000 ga yaqin maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagoglari uchun “Muvozanat”

texnologiyalari” kabi yangi adabiyotlar, multimedial vositalar, interaktiv o’yinlar ishlab chiqildi.

Ta’lim-tarbiya jarayoniga innovatsiyalar, ilg’or texnologiyalarni joriy etish maqsadida direktor o’rinbosari lavozimi joriy etilgani, MTTlarda “Mahorat kuni”, “Metodik mahorat soati” tadbirlari tashkil etilayotgani ham tizimdagi yangilanishlarga xizmat qilyapti. Har oyda 2 marta belgilangan dastur asosida pedagoglarni o’qitayotgan eng namunalni tayanch MTTlarning direktor o’rinbosarlari 20 foiz ustama olaypti. Chunki ularning yordami bilan pedagog kadrlar salohiyati, kasbiy rivojlanishi past hududlarda jonlanish kuzatila boshladi. Qorag’alpog’iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi 3000 ga yaqin maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagoglari uchun “Muvozanat”

pedagoglarni psixologik qo’llab-quvvatlash loyihasi doirasidagi treninglar qatnashchilarning kasbiga muhabbati va mas’uliyatini yanada oshirishda muhim omil bo’ldi.

— Mutaxassislar uchun o’tkazilayotgan bu loyihaning barcha xarajati davlat tomonidan qoplandi, — deydi loyiha yurituvchisi, psixolog Hurriyat Rahmatullayeva. — U maktabgacha ta’lim taraqqiyoti, bolalarning ruhiy va hissiy salomatligi, umuman, ta’lim sohasidagi mutaxassislarning o’z jamoasida yuqori natijaga erishishiga xizmat qildi. Asosiy maqsadimiz — bolalar bilan ishlayotgan mutaxassislar fikrlash tarzini va hayotiy pozitsiyasini o’zgartirish, ularga jamiyatdagi o’rni va mas’uliyatini his etirish edi. Pedagoglardagi o’zgarishlarni ko’rib, loyiha juda yaxshi natija berganini angladik.

Ilk bor tashkil etilgan loyiha pedagoglar uchun mo’ljallangan amaliy mashg’ulotlar, treninglar va muloqot sessiyalari orqali ichki xotirjamlikni topish, tushkunlikni yengish va hissiy muvozanatni saqlash ko’nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Bugun hamma sohada, ayniqsa, maktabgacha ta’lim tizimida malakali, fidoyi kadrlar suv va havodek zarur. Bolalar bilan professional ishlay oladigan xodimlarga ta’lim poydevorini mustahkam qurishga hissa qo’sha oladi.

Bog’cha tarbiyachilarini tayyorlaydigan oliygohlar bilan doimiy hamkorlik o’rnatilgani, muntazam malaka oshirish kurslari tashkil etilayotgani, xorijlik mutaxassislar jalb qilinayotgani sababi ham shunda. Uzoq va chekka hududlardagi maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglari uchun auditoriya ko’rinishidagi 4 ta avtobus negizida mobil malaka oshirish xizmatlari yo’lga qo’yilgani esa masalaning nechog’liq muhimligidan dalolat. Chunki joriy yildan boshlab maktabgacha ta’lim tashkilotlariga birinchi marta ishga qabul qilinayotgan stajyor-tarbiyachilar va bog’cha psixologlari ham majburiy kasbiy sertifikatlash sinovlaridan o’tadi. Bir yillik ish muddati yakunlangach, faqat sertifikat olgan yoki attestatsiyada yetarli natija ko’rsatgan pedagoglar bilan doimiy mehnat shartnomasi tuziladi.

Ekologiya burchaklari
va yo’lakchalar —
yil loyihalari

2025-yil Chirchiq shahridagi bolalar bog’chalaridan birida Xitoy tajribasi asosida kasbga yo’naltirish ishlari yo’lga qo’yildi. Bunda tarbiyalanuvchilarning ichki imkoniyati, ehtiyoji va qiziqishi hisobga olinadi. Bolalarning kasbga intilishini oshirish maqsadida ilg’or xorijiy tajribalar o’rganib chiqilib, bog’cha zamonaviy mebel jihozlari va zarur uskunalar bilan ta’minlangan. Xitoy tajribasidan foydalanib, o’g’il-qizlarning vatanparvarlik va jamoaviy ishlash ko’nikmasini hamda ijodiy qobiliyatini rivojlantirish ko’zda tutilgan.

Jumladan, Sirdaryo viloyatining Guliston shahrida yangidan rekonstruksiya qilingan 10-maktabgacha ta’lim tashkilotida ham o’yin asosida kasbga yo’naltirish tizimi yo’lga qo’yildi. U bolalarda kelajak kasblariga qiziqish uyg’otadi va amaliy bilimlarni rivojlantirishda muhim o’rin tutadi. Shuningdek, tashkilotda “Ekologik burchaklar”

va “Ekologik yo’lakchalar” tashkil etilib, bolalarda tabiatni anglash, ekologik ong va ijodkorlikni uyg’unlashtirish imkoniyati yaratildi. Bu hozir eng dolzarb masala bo’lgan ekologiya, atrof-muhit, iqlim o’zgarishiga doir bilimlarni o’g’il-qizlarga bog’cha yoshidan boshlab berish kerakligining amaliy ko’rinishi.

Namunaviy hududlar

Davlatimiz rahbari o’tgan yil 9-sentabr kuni maktabgacha va maktab ta’limi sohasidagi islohotlar ijrosi hamda kelgusidagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o’tkazilgan videoselektor yig’ilishida maktabgacha ta’limga qamrovdan Qashqadaryo viloyatini namuna qilib ko’rsatdi. Viloyatning barcha tumanida xususiy sektor va chet ellik hamkorlar bilan ikki yilda bog’cha va maktab o’rni 3 barobar ko’paygani ta’kidlanib, viloyat hokimlariga bu tajribani o’rganish vazifasi topshirildi.

Darhaqiqat, viloyatning Qamashi tumanidagi olis va chekka hududlarda istiqomat qilayotgan bolalar uchun maxsus loyiha yo’lga qo’yilgani ham e’tirofqa sazovor. Changak va Qizilqishloq mahallalarining maktabgacha yoshdagi bolalari har kuni etarlab “Aqlvoy” avtobus-bog’chasi 32-DMTTga olib kelinadi. “Mobil A” va “Mobil B” guruhlarida 16 nafardan bola ta’lim-tarbiya jarayoniga jalb qilingan. Tarbiyachilar hamrohligida avtobusda bog’chaga qatnayotgan bolalar mashg’ulotlardan so’ng yana ulariga eltib qo’yiladi. Ota-onalar bunday xayrli ishlardan minnatdor, farzandlaridan esa ko’ngli to’q.

Maktabgacha ta’limga qamrab olishda yangi yondashuvning eng samarali muqobil shakli sifatida qayta jihozlangan “ISUZU” avtobuslari negizida “Aqlvoy” mobil maktabgacha ta’lim tashkilotlari yo’lga qo’yilganiga 5 yil bo’ldi. Dastlab 16 ta avtobusda tashkil etilgan mobil guruhlar bugunga kelib, mamlakatimizning 216 ta chekka mahallasida 400 dan ortdi. 102 ta “Aqlvoy” avtobusi negizida qariyb 10 ming bola maktabgacha ta’limdan bahramand bo’lyapti. Oilaada emas, maktabgacha ta’lim mas-kanida bo’lgan uchun minglab bolalar byiron so’zlayapti, til o’rganyapti, hatto mantiqiy fikrlayapti.

2025-yil 5-7 yoshli tarbiyalanuvchilar o’rtasidan iste’dodli bolalar ham kashf qilindi. Ularni qo’llab-quvvatlash maqsadida tashkil etilgan uch bosqichli “Jajji nurlı yulduzlar” festivalida minglab o’g’il-qiz o’z ijodiy qobiliyatini namoyon etdi.

Videoselektor yig’ilishida bog’cha o’rinlarini ko’paytirish zarurligi ko’rsatib o’tildi. Shuningdek, har bir tumanida bog’cha qamrovi 80 foizdan kam bo’lmaligi belgilandi. Buning uchun viloyat va tuman hokimlari oldiga bo’sh yerlarni topib, auktionsga chiqarish, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi bilan birgalikda qaysi maktab va bog’chada bo’sh joy bo’lsa, bog’cha qurish rejasini belgilash vazifasi qo’yildi.

2025-yil ta’limga alohida e’tibor yili bo’ldi. Bo’sh yerlarda bog’cha tashkil etishi bo’yicha xususiy sheriklik yoki sarmoya kiritish sharti bilan uch yillik dastur qabul qilish, yangi xususiy bog’chalarga subsidiya berish, tarbiyachilar maoshini qisman qoplash tartibini joriy qilish kabi vazifalar ijrosi natijasida qamrovni rejadagi ko’rsatkichlarga yetkazishga muvaffaq bo’lindi. To’g’ri, yangi yilga birorta muammosiz, bekam-ko’s to’tdik deyish mushkul. Biroq yakunlangan yil bergan imkoniyatlar, ta’lim tizimi tarixida bo’lmagan imtiyozlar tufayli muammoli masalalarga yechim topiladi, to’siqlar asta-sekin bartaraf etiladi.

Munojat MO’MINOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Ilm-fan

Boshlanishi 1-betda

Shuningdek, davlatimiz rahbari o’tgan yilning 8-sentabr kuni ta’lim tizimini isloh qilish masalalariga oid taqdimot bilan tanishar ekan, oliy ta’limdan keyingi ta’lim tizimida ilmiy darajali kadrlarni tayyorlash tartibini takomilllashtirish bo’yicha muhim takliflarni ma’qulladi. Xususan, doktoranturaga ajratiladigan kvotalar mamlakat taraqqiyotining ustuvor yo’nalishtirishga muvofiq qilib shakllantiriladigan bo’ldi. Bu o’z-o’zidan ilmiy tadqiqotlar mazmuni va yo’nalishtirishini milliy rivojlanish ehtiyojlariga uzviy bog’lash imkonini yaratadi.

Mazkur yondashuvning amaliy natijasi sifatida 2026-yil uchun stajyor-tadqiqotchilik, tayanch doktorantura, doktorantura hamda maqsadli doktoranturaga ajratilgan 5300 ta kvotaning 60 foizi ilmiy kadrlar tayyorlashning ustuvor yo’nalishtirishga mos ixtisosliklarga yo’naltirildi. Bu esa fan va innovatsiyaning strategik ahamiyatga ega tarmoqlarini tezkor rivojlantirish, ilmiy salohiyatni maqsadli oshirish hamda raqobatbardosh ilmiy natijalar yaratish imkonini beradi.



— Agar 2017-yilda doktorantura uchun davlat byudjetidan atigi 24 milliard so’m yo’naltirilgan bo’lsa, bugungi kunda 989 milliard so’mga yetdi, — deydi Innovatsion rivojlanish agentligi direktori vazifasini vaqtincha bajaruvchi Asror Norov. — Bunday keskin o’sish ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirishning barqaror tizimi shakllanayotgani, shuningdek, ilmiy kadrlar tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo’nalishtirishidan biriga aylanganini ko’rsatadi. Oliy ta’limdan keyingi ta’lim tizimida stajyor-tadqiqotchilik instituti yo’lga qo’yilishi ilmiy kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko’tardi. Ushbu institut tayanch doktoranturaga tayyorlov bosqichi vazifasini bajarib, yosh tadqiqotchilarga ilmiy faoliyatining

dastlabki bosqichlarida zarur bo’lgan metodologik, tahiliy va amaliy ko’nikmalarni shakllantirishda muhim o’rin tutmoqda.

Stajirovkalar ahamiyati

Ilmiy stajirovka talabalar va yosh olimlar uchun ilmiy-tadqiqot muassasalarida amaliy ko’nikmalarni puxta egallash imkonini beruvchi samarali mexanizmdir. U nafaqat nazariy bilimlarni amaliy jihatdan mustahkamlaydi, balki yangi ilmiy g’oyalarni shakllantirishga ham zamin yaratadi.

Jahon amaliyotida ilmiy stajirovkaga ta’lim va tadqiqot integratsiyasining muhim shakli sifatida qaraladi. Ko’plab

olimlar stajirovkani innovatsion fikrlashni rivojlantiradigan va izlanishlar sifatini oshiradigan omil deya tavsiflaydi. Mamlakatimizda ham so’nggi yillarda ilmiy tadqiqotlarni qo’llab-quvvatlash va xalqaro stajirovkalarni kengaytirish bo’yicha qator dasturlar amalga oshirilmogda.

— 2018-2025-yillar davomida ilm-fan rivojlangan davlatlarning yetakchi ilmiy muassasalarida 1200 dan ziyod yosh olim ilmiy stajirovka o’tab keldi, — deydi Asror Norov. — Birgina 2025-yilda 145 nafar yosh tadqiqotchi tanlovlarda g’olib bo’lgan. Ularning 98 nafari nufuzli ilmiy markazlar va laboratoriyalarda qisqa muddatli stajirovka o’tash uchun xorijga yuborildi. Ularning 80 foizi 35 yoshgacha bo’lgan ilmiy xodimdir.

Stajirovka yosh olimlarning nafaqat ilmiy ko’nikmalarini mustahkamlayapti, balki xalqaro ilmiy hamjamiyatga kirish, yangi loyihalarni O’zbekistonda tatbiq etish va salohiyatini oshirishiga xizmat qilmoqda.

Xususiy sektor
drayver bo’lmoqda


Innovatsion rivojlanish agentligi yil davomida kichik va o’rta biznesni qo’llab-quvvatlash hamda korxonalar samaradorligini oshirishga qaratilgan keng ko’lamli loyihalarni moliyalashtirdi. Natijada xususiy sektor tomonidan ilm-fan va innovatsiyalarga jalb qilingan investitsiyalar hajmi 6 milliard 353 million so’m dan ko’proqni tashkil qildi.

Bu ko’rsatkich mamlakat iqtisodiyotida innovatsiyaga qiziqish ortib borayotgani, xususiy sektor ilmiy natijalarni real iqtisodiy samaraga aylantirishga tayyor ekanini anglatadi.

— Xususiy sektor loyihalar turli sohalarni qamrab olgan, — deydi Innovatsion rivojlanish agentligi boshqarma boshlig’i Umidjon Hoshimov. — Qishloq xo’jaligi va chorvachilik yo’nalishtirish 1 milliard 944,15 million so’m investitsiya yo’naltirildi. Jumladan, guruh chiqindilaridan ozuqa qo’shimcha ishlab chiqaruvchi “CBF Animal Nutrition” loyihasi 973,45 million so’mga moliyalashtirildi. “Innovatsiya & Texnologiyalarni joriy qilish markazi” MCHJ esa iqlim o’zgarishiga chidamli bug’doy navlarini joriy etish bo’yicha 970,70 million so’mlik loyihani amalga oshirdi. Ushbu tashabbuslar nafaqat oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, hosildorlikni oshirish va import o’rini bosish, balki ilmiy innovatsiyalarni amaliy iqtisodiyotga tatbiq etish bo’yicha ham muhim qadamdir.

Oziq-ovqat sanoati yo’nalishtida jami 1 milliard 151,41 million so’mlik loyihada amalga oshirildi. Sog’liqli saqlash sohasida biotexnologik loyihalar ham alohida ahamiyatga ega.

Qo’llab-quvvatlangan loyihalar qishloq xo’jaligi, oziq-ovqat, sog’liqli saqlash, energetika va ekologiya sohalarida real



natijalar berib, xususiy sektorni mamlakatning innovatsion taraqqiyot lokomotivi sifatida shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etayotir.

Innovatsion rivojlanish agentligi 2019-2025-yillarda 30 dan ortiq startap loyiha tanlovini e’lon qilgan. Mazkur tanlovlar natijasida jami 218,3 milliard so’mlik 389 ta startap loyiha moliyalashtirildi, ularni amalga oshirish orqali 369 ta yangi innovatsion korxona tashkil etildi. Mazkur korxonalar faoliyati natijasida 2316 ta yangi ish o’rni ochildi.

Startaplarni qo’llab-quvvatlash va ularning amaliy loyihalariga aylantirish orqali nafaqat iqtisodiy o’sishga, balki keng miqyosda ijtimoiy barqarorlikka, ish o’rinlari yaratishga va innovatsion muhitni rivojlantirishga erishish mumkin.

Bu esa mamlakatimizning uzoq muddatli strategik maqsadlarida yoshlarga imkoniyat yaratish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish va barqaror rivojlanishni ta’minlashga xizmat qilishi bilan ahamiyatli. Chunki innovatsiya bo’lmaz ekan, hech bir sohada raqobat, taraqqiyot bo’lmaydi.

Risolat MADIYEVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



YOXUD BOLALAR MAYDONCHASIDAN JAHON CHEMPIONATIGACHA



Asliddin ABDURAZZOQOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Kishining tashqi ko‘rinishi — kiyinishidan tortib, ko‘z qarashigacha uning ichki olamini aks ettirishi haqida albatta o‘qigan, eshitgansiz. Maydonchadagi bolalarni kuzata turib o‘ylab qoldim: bu qoida jamiyatlar uchun ham birdek amal qilar ekan. Ya’ni infratuzilma, sharoit, imkoniyat, harakat, mehnat — hammasi jam bo‘lgan muhitda jamiyatning umumkayfiyati, rivojlanish va shunga monand samarasi ham tezda bo‘y ko‘rsatadi. Shu ma’noda, sportda, xususan, futbolda erishiladigan natijalar, yutuqlar, hatto muvaffaqiyatsizliklar zaminida ham katta bir falsafa, ijtimoiy-ruhiy ma’no-mazmun mujassam.

Demak, eng chekka hududlarda qurilgan, qurilayotgan maydonchalarni yuzlab-minglab muxlisni bag‘riga sig‘dira oladigan muhtasham arenalar qad rostlayotgani bugun o‘sha mini stadionlarda xotirjam mashg‘ulot o‘tayotgan bolakaylarning etraga olamshumol muvaffaqiyatlarni reallikka aylantirishiga zamin hozirlaydi, olg‘a boshlaydi.

Chunonchi, turli yoshdagi terma jamoalarimiz muntazam yuqori natijalar uchun kurashmoqda, yurtimiz esa katta futbol festivallariga mezbonlik qilyapti. Xususan, FIFA kengashi tomonidan O‘zbekiston va Ozarbayjonning 2027-yilgi U-20 jahon chempionatiga mezbon sifatida rasman tayinlanishi mamlakatimiz sport salohiyatiga yuksak ishonch ramzi, katta mas’uliyat bo‘lish bilan birga dunyo nigohida ham emas, avvalo, o‘zimizga islohotlar samarasini, tizimning ichki tayanchlari qay darajada yetilganini ko‘rsatib beradigan ko‘zgu vazifasini bajaradi. Davlatimiz rahbarining 2025-yil 15-dekabrda “2027-yilgi futbol bo‘yicha U-20 Jahon chempionatiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ham ayni shu jihatlarni nazarda tutgani bilan ahamiyatli, sohadagi keyingi qadamlarni aniq belgilab olish uchun dasturlamal ham bo‘ladi.

Shubhasiz, mazkur musobaqaga mezbon bo‘lish huquqi stadionlar mahobati, undagi o‘rindiqlar soni bilan o‘lchanmaydi. Bu tanlov ortida uzoq vaqt davomida shakllangan tartib, mas’uliyat, ichki muvozanat va ishonch yotadi. Zero, u, birinchi navbatda, xalq tomonidan qanday qarshi olinadi, qanday kuzatiladi, qanday xotira qoldiradi — mana shu savollar mezbonlikning asl mohiyatini belgilaydi. Shu nuqtada futbol o‘zining sport qobig‘idan chiqib, mamlakatning tashkiliy madaniyati, jamoatchilik kayfiyati va o‘ziga ishonchini namoyon etadigan maydonga aylanadi.

Bugungi natijalar esa bosqichma-bosqich to‘plangan tajriba, maydonda va uning

tashqarisida shakllangan intizom orqali o‘z ifodasini topdi. Futbol atrofida yuzaga kelgan muhit o‘zgardi, maydonga chiqayotgan avlodning nigohida boshqacha ishonch paydo bo‘ldi, tomoshabin ham endi faqat natijani emas, jarayonni his qila boshladi. Shu bois, 2027-yilgi U-20 jahon chempionati bilan bog‘liq qarorni alohida bir hodisa emas, balki shu yo‘ning mantiqiy davomi sifatida qabul qilish to‘g‘riroq bo‘ladi. Demak, qaror mohiyatida nimalar yotibdi, u qaysi bosqichlarning ustiga qurildi, qanday omillar bu darajagacha yetib kelishga zamin hozirladi degan savollarga javob izlash orqali istiqboldagi marralar borasida ham dadil fikr yuritish imkoni tug‘iladi. Zero, bu yerda gap faqat turnir haqida emas, futbol orqali shakllanayotgan ishonch, tartib va kelajak haqidagi tasavvur haqida bormoqda.

Boshqaruvdagi institutsional o‘zgarishlar

O‘zbek futbolida so‘nggi o‘n yil ichida yuz bergan o‘zgarishlar tablodagi hisob bilan boshlanib, hisobotlar bilan yakun topadigan jarayonni tom ma’noda yangi ko‘rinishga keltirdi. Bu davr, avvalo, futbolning ichki boshqaruv mexanizmlarini qayta ko‘rib chiqish, mas’uliyat va vakolatlarni aniqlash, qaror qabul qilish madaniyatini shakllantirish bosqichi sifatida kechdi. Bir paytlar alohida-



alohida harakat qilgan tuzilmalar asta-sekin yagona tizim ichida ishlay boshladi, musobaqalar taqvimini tasodifga emas, oldindan rejalashtirilgan mantiqqa tayanadigan bo‘ldi, klublar va ligalar o‘rtasidagi munosabatlar tartibga solindi. Bu jarayon tashqaridan qaraganda keskin sakrashlarsiz kechganiga qaramay, aslida barqarorlik muhitini paydo qildi. Xususan, 2018-yildan futbol boshqaruvida markazlashgan, aniq vazifalarga bo‘lingan model shakllana boshladi. Futbol federatsiyasi tuzilmasi yangilandi, professional ligalar faoliyati alohida yo‘nalish sifatida mustahkamlandi, musobaqalar taqvimini xalqaro standartlarga moslashtirildi.

Shu yillar mobaynida futbolni boshqarish masalasiga yondashuv ham o‘zgardi. Natijani bugun olish uchun ertani qurbon qilish odati asta-sekin chekinib, bosqichma-bosqich rivojlanish tamoyili ustuvorlik kasb eta boshladi. Bu sokin, biroq qat’iy o‘zgarishlar infratuzilmasiz o‘z samarasini bermas edi. Bir necha yil avval xalqaro talablariga javob beradigan maydonlar soni juda kam bo‘lgan,



keyingi davrda esa bu manzara izchil o‘zgara boshladi. Stadionlar rekonstruksiya qilindi, mashg‘ulot bazalari yangilandi, hududlarda futbol uchun doimiy sharoit yaratildi. Muhimi, bu jarayon markaziy hududlar bilan cheklanib qolmadi, viloyatlarda, chekka-chekka qishloq-ovullarda ham futbol bilan shug‘ullanish tizimlari tus oldi. Mashg‘ulot maydonlari atrofida sport tibbiyoti, reabilitatsiya, tiklanish jarayonlarini qamrab olgan muhit shakllandi. Shu bilan birga, xorijiy tajriba asosida ishlashga o‘tildi, mutaxassislar almashinuvi, malaka oshirish

jamoamiz Osiyo chempionatida g‘alaba qozonib, o‘smirlarimiz 2012-yildan keyin yana bir bor bosh sovrinni boshi uzra ko‘tardi. Bundan keyin ham muvaffaqiyatlardagi izchillik zanjiri uzilmadi. O‘zbekiston U-23 terma jamoasining Parij Olimpiadasiga yo‘llanma olishi futbolimiz tarixida yangi sahifa ochdi. Bu natija yoshlar jamoalaridan katta futbol sari o‘tish jarayoni uzviy yo‘lga qo‘yilganining amaldagi tasdig‘i bo‘ldi.

Muhim jihati shundaki, bu yutuqlar o‘zaro uzviylik kasb etdi, ya’ni U-17, U-20 va U-23 jamoalari tarkibida maydonga tushgan futbolchilar o‘rtasida mantiqiy bog‘liqlik kuzatildi. Bir bosqichda shakllangan intizom va mas’uliyat keyingi darajaga o‘tishda yo‘qolmadi, aksincha, yanada mustahkamlandi. Bu jarayonda individual texnikadan ko‘ra jamoaviy fikrlash va ruhiy barqarorlik hal qiluvchi omilga aylandi.

Oxir-oqibat katta maydonda ham shu jarayon o‘z aksini topdi. Yillar davomida shakllangan tizim — intizom, mas’uliyat va ruhiy barqarorlik milliy terma jamoa darajasida ham sezila boshladi. Uzoq yillik orzu bo‘lib kelgan manzilga nihoyat qadam qo‘yildi: O‘zbekiston milliy terma jamoasi tarixida ilk bor jahon chempionatiga

jarayonlari futbol ichidagi bilim aylanishini tezlashtirdi.

Mazkur jarayonda natijalar izchil ishlangan mexanizmlarning ochiq ifodasi o‘laroq birin-ketin bo‘y ko‘rsatdi. 2023-yilda O‘zbekiston U-20 terma jamoasining Osiyo chempionligini qo‘lga kiritishi yoshlar futbol tarixida burilish nuqtasi sifatida qabul qilindi. Musobaqa davomida jamoa o‘yini tartib, jismoniy tayyorgarlik va bosim ostida to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyati bilan ajralib turdi. Mazkur g‘alaba bir turnir bilan chegaralanib qolmadi, u yoshlar bilan ishlashda tanlangan yo‘lining to‘g‘riligini ko‘rsatib berdi. Shu yilning o‘zida U-17 terma



yo‘llanma oldi. Bu natija birgina saralash o‘yinlaridagi g‘alabalar bilan izohlanmaydi, u oldindan qurilgan poydevorning mantiqiy cho‘qqisi sifatida namoyon bo‘ldi. Bu manzilga olib borgan yo‘l yoshlar futbolidan boshlangan, bosqichma-bosqich mustahkamlangan, maydonda va uning tashqarisida qat’iyat bilan qilingan mehnat, bir butun, yaxlit mexanizmga aylangan tizim orqali barpo etildi. Aynan mana shu uzviylik O‘zbekiston futbolining bugungi holatini belgilab berdi va uni yangi sinovlarga tayyor holda olib chiqdi.

Ijtimoiy maydonga ham ta’sir ko‘rsatuvchi jarayon

FIFA singari nufuzli tashkilotlar jahon miqyosidagi katta musobaqalarni shunchaki to‘g‘ri kelgan mamlakatga topshirib qo‘yavermaydi. Ya’ni mezbonni tanlashda, avvalo, maydonlarning chiroviga emas, maydon atrofidagi tartibga qarab ish tutiladi. Qanday kutib olinadi, qanday joylashtiriladi, o‘yinlar qanday muhitda o‘tadi, xavfsizlik, logistika, translyatsiya, tomoshabin oqimi qanday boshqariladi — mana shu savollarga javob topilganidagina ishonch shakllanadi. 2027-yilgi FIFA U-20 jahon chempionatini O‘zbekiston va Ozarbayjonga ishonib topshirish qarori ana shu uzoq tekshiruvlar natijasida qabul qilindi.

Bu ishonchga sekin-astalik bilan erishildi, bir turnirdan keyin boshqasiga o‘tib, sinovdan sinovga ulanib bordi. 2023-yil mart oyida O‘zbekiston U-20 Osiyo chempionatiga mezbonlik qildi. Bir necha shaharda o‘tkazilgan o‘yinlar tashkiliy jihatdan uzluksiz kechdi, jamoalar va rasmiylar uchun zarur sharoitlar yaratildi, musobaqa aniq jadval asosida yakunlandi. Butajriba futbol yo‘nalishida yanada kengroq ko‘lamda sinovdan o‘tdi. 2024-yilda FIFA futbol bo‘yicha jahon chempionatini yurtimizda o‘tkazish qarorini qabul qildi va mezbon shaharlar sifatida Toshkent, Buxoro va Andijon tanlandi. Turnir doirasidagi tadbirlar, o‘yinlar, tashkiliy jarayonlar O‘zbekistonning global futbol protokollari bilan ishlashga tayyorligini ko‘rsatdi. Ayniqsa, final qur’a marosimining Samarqanddagi Registon maydonida o‘tkazilishi futbol tadbirini madaniy makon bilan uyg‘unlashtirish mumkinligini namoyon etdi.

Bunday nufuzli turnirlarni qabul qilish uchun tashkilot reglamentiga mos infratuzilma yaratish masalasi ham turadi. FIFA U-20 jahon chempionati uchun belgilangan talablardan biri

yarim final va final uchrashuvlarini kamida 40 ming tomoshabinni sig‘dira oladigan stadionda o‘tkazish shartidir. Shu talabdan kelib chiqib, Yangi Toshkent hududida 55 ming o‘rinli stadion qurilishi boshlandi. Ushbu loyiha aniq bir turnir ehtiyoji bilan bog‘landi va global standartlar asosida rejalashtirildi.

Shu tariqa xalqaro ishonchning ichki mantig‘i aniq ko‘rinda boshladi. Avval mintaqada darajasidagi turnirlar, keyin FIFA darajasidagi musobaqa orqali global standartlar bilan ishlash tajribasi orttirildi. Endi esa yigirma yoshgacha bo‘lgan futbolchilar o‘rtasidagi jahon chempionati ana shu yo‘lining mantiqiy davomiga aylanmoqda.

Mazkur sport festivaliga puxta tayyorgarlik ko‘rishni nazarda tutuvchi qaror shu ma’noda ham muhim hujjat bo‘ldi. Unda, avvalo, tashkiliy mas’uliyat masalasi aniqlashtirildi. Jahon chempionatiga tayyorgarlik bir necha idora zimmasiga yuklandi, vazifalar o‘zaro bog‘langan holda taqsimlandi. Davlat boshqaruvi, sport tuzilmalari, mahalliy hokimiyat, xavfsizlik va logistika yo‘nalishlari yagona jarayonga birlashtirildi. Bu yondashuv tayyorgarlikni butun mamlakat miqyosida muvofiqlashtiradigan harakatni talab qiladi.

Shuningdek, ushbu qaror bilan FIFA va O‘zbekiston futbol assotsiatsiyasining Toshkent shahrida FIFAning Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun mintaqaviy ofisini ochish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullandi. Bu O‘zbekiston futbolning mintaqaviy markaziga aylanib borayotganini ko‘rsatadigan muhim belgidir. FIFAning Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun mintaqaviy ofisini aynan Toshkentda joylashtirish taklifini futbol boshqaruvi, tashkiliy madaniyat va institutsional tayyorlik masalasida mamlakatga bildirilgan ishonch sifatida baholash mumkin. Mintaqaviy ofisning Toshkentda faoliyat yuritishi Markaziy Osiyo hududidagi futbol jarayonlarini muvofiqlashtirish, federatsiyalar o‘rtasidagi aloqalarni kuchaytirish, FIFA dasturlari va tashabbuslarini bevosita hududda amalga oshirish imkonini beradi. Bu orqali Toshkent shunchaki mezbon shahar emas, balki mintaqaviy futbol qarorlarining muhim muhokama maydoniga aylanadi.

Qarorda infratuzilma masalalari aniq yo‘nalishga ega. Stadionlar, mashg‘ulot bazalari, muhandislik va transport tizimlari turnir ehtiyojidan kelib chiqib rejalashtiriladi. Shu bilan birga, xavfsizlik va tashkiliy tartib masalalariga alohida ahamiyat qaratiladi. Jahon chempionati o‘yinlarining maydonidagi jarayonni bilan birga stadion tashqarisidagi muhit ham nazoratga olinadi. Tomoshabinlar oqimi, jamoalar harakati, rasmiy delegatsiyalar bilan ishlash, translyatsiya aniq tartibga solinadi. Bunday yondashuv turnir faqat sport musobaqasi emas, murakkab ijtimoiy jarayon sifatida ko‘rilayotganidan darak. Shunday qilib, qaror mazmunidan ko‘rinadiki, bu masalada asosiy maqsad bir necha hafta davom etadigan musobaqani o‘tkazish bilan cheklanmaydi. Gap undan keyin ham ishlaydigan tizimni shakllantirish haqida bormoqda.

Bundan kelib chiqadiki, 2027-yilgi U-20 jahon chempionati yakunlangach, maydonlar bo‘shab qolmaydi, tribunalarni sukutga cho‘mmaydi. Katta turnirning eng muhim savoli ham aynan shu yerda tug‘iladi: keyin-chi, keyin nima bo‘ladi, hammasi qanday davom etadi? Chunki haqiqiy mezbonlik musobaqa tugaganidan keyingi bosqichlarda baholalanadi. Stadionlar ishlashda davom etadimi, tizim o‘z maromini yo‘qotmaydimi, yoshlar uchun ochilgan eshiklar yopilib qolmaydimi — masalaning mohiyati ana shu savollar atrofida shakllanadi.

Turnirdan keyingi eng muhim vazifa yoshlar bilan ishlash jarayonida namoyon bo‘ladi. Jahon chempionati davrida yuzlab yosh futbolchilar, murabbiylar, mutaxassislar global futbol muhitini bevosita ko‘radi, uning talablari va sur’atini his qiladi. Bu tajriba mashg‘ulot maydonlariga, futbol maktablariga, seleksiya jarayonlariga ko‘chadi. Bir avlod o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan darajani me’yor sifatida qabul qiladi, keyingi avlodga ham ayni talabni qo‘yadi. Shu tarzda futbol ichida ichki standart paydo bo‘ladi.

Yana bir muhim jihat tashkiliy madaniyat bilan bog‘liq. Jahon chempionati davomida ishlaydigan logistika, xavfsizlik, media va servis tizimi keyinchalik boshqa yirik sport tadbirlariga ham asos bo‘lib xizmat qiladi. O‘yin kunidagi tartib umumiy boshqaruv madaniyatining bir bo‘lagi sifatida qaraladi. Bu tajriba sport doirasidan chiqib, kengroq ijtimoiy maydonga ham ta’sir ko‘rsatadi.

Asosiysi, bu jarayon O‘zbekiston futbolini boshqalarga ko‘z-ko‘z qilish uchun amalga oshirilmayapti. U, avvalo, o‘zimiz uchun. Kelajakdagi futbolchilar, murabbiylar, muxlislar, xalqimiz — siz biz uchun. Shu bois, bu yo‘lni bir qaror bilan boshlab, bir turnir bilan tugatib bo‘lmaydi. Futbol tirik jarayon. U doim harakatda bo‘lishni talab qiladi. O‘zbekiston futbolni hozir aynan shu holatda.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida saqlanadi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeks — 236. Buyurtma — G-146.
32015 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etiladi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Sanjar Eshmurodov
Musahhih: Akbar Qarshiyev
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilmimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy